

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYA
VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI**

Qo'lyozma huquqida

UDK: 379.851


NOMOZOVA RAYXON RUSTAMOVNA

**SURXONDARYODA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH
IMKONIYATLARI HAMDA ISTIQBOLLARI (Termiz tumani
misolida)**

**71010401-Mutaxassislik: Turizm (Ziyorat turizmi) Magistr akademik darajasini
olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar



i.f.d, dots. O'.D.Rajabov

TERMIZ – 2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2021-yil 03-dekabrda №54-T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:




Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (6 raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avloki ko'chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar:

Kafedra mudiri:

Magistratura bo'limi boshlig'i:



i.f.d, dots. O'.D.Rajabov

i.f.d, dots. O'.D.Rajabov

p.f.f.d. A.B. Narbayev

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARINING NAZARIY USLUBIY ASOSLARI.....	9
1.1-§. Ziyorat turizm rivojlanishtirishning nazariy asoslari.....	9
1.2-§ Jahon ziyorat turizmi ob‘ektlari va ularning turizm faoliyatini tashkil qilishdagi ahamiyati.....	17
1.3-§. O‘zbekistonda ziyorat turizmning tadrijiy rivojlanish bosqichlari.....	25
I bob bo‘yicha xulosalar.....	33
II SURXONDARYODA ZIYORAT TURIZM OB‘EKTлари VA RIVOJLANISH TENDENSIYALAR.....	35
2.1-§ Surxondaryoda ziyorat turizm ob‘ektlari va infratuzilmalarining joylashuvi.....	35
2.2-§ Ziyorat turizm rivojlanishida zamonaviy xizmatlarni tashkil qilish.....	44
2.3-§. Surxondaryoda ziyorat turizmi rivojlanishining hozirgi holati tahlili....	54
II bob bo‘yicha xulosalar.....	63
III SURXONDARYO VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO‘NALISHLARI	64
3.1-§. Surxondaryoda ziyorat turizm resurslari va ularning joylashuvi.....	64
3.2-§ Surxondaryoda ziyorat turizm imkoniyatlarini kengaytirish hamda xorijiy sayyohlar uchun qulayliklar yaratish va marshrutlar tuzishning imkoniyatlari.....	69
3.3-§ Termiz tumanidagi ob‘ektlarda kirish ziyorat turizmini barqarorlashtirish hamda turistik xizmatlarga oqilona narx o‘rnatish strategiyasini ishlab chiqish.....	76
III bob bo‘yicha xulosalar.....	80
XULOSA VA TAKLIFLAR	82
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	85
Ilovalar.....	92

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Insoniyat tarixida din qadimdan ma'naviy-ruhiy poklanishi, tarbiyaviy-axloqiy madaniyatini shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Ziyoratgoh ob'ektlari o'zaro muloqot kommunikatsiya joyi hamda ma'naviy-ma'rifiy axborotlar almashish maskani vazifasini bajarib kelmoqda. Shu bilan birgalikda yurtimizda ma'naviy muhit va madaniy hayotni yaxshilashga qaratilayotgan qator yaxshi amallar tarixiy qadriyatlarimizga, ajdodlarimizga bo'lgan yuksak e'tibor namunasidir. Texnika taraqqiyoti va axborotlar asrida ziyoratgoh nomi bilan bog'liq shaxsning ilmu irfoni, amallari, ma'naviy merosini xalq ommasi bilan tanishtirish turli diniy qarashlarga qarshi himoya vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, ziyoratgohlarning aholi ma'naviy ma'rifiy hayotidagi o'rnini alohida ko'rib chiqish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Ma'lumki, turistik resurslarning turi ko'p bo'lib, sayohatdan maqsad asosan tanishuv, dam olish va sog'lomlashtirish, sog'likni tiklash va sport hamda diniy ziyorat va boshqa maqsadlarni ko'zda tutadi. Turizmning qadimiy va aktiv turlaridan biri bu diniy turizm hisoblanadi. Mazkur tarmoqning geografiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, jahonning turli mamlakat, mintaqalarida diniy turistik resurslar turlicha ta'minlangan. Ayni paytda esa hamma joyda ham ziyorat ob'ektlar mavjud emas. Jahon miqiyosida, ya'ni dunyo dinlari hisoblangan xristianlik, islom va buddizm dinlari hamda mahalliy dinlarga dunyo aholisi e'tiqod qiladi. Diniy ziyorat maqsadida sayohatlar qadim davrlardan rivojlangan bo'lib, xatto hozirgi kundagi eng aktiv "turmigrisiya" hisoblanadi.

O'zbekiston qadimdan jahon sivilizatsiyasining o'choqlaridan biri bo'lib kelgan. Bu yurtdan ko'plab allomalar, olimu fuzalolar, buyuk sarkardalar yetishib chiqqanligi bugun hech kimga sir emas. Yana shuningdek, mamlakatimiz ulug' avliyolar yurti-ki, bunday ajdodlar tug'ilib ijod etgan tuproqda yashashdek sharafga muayassar bo'lganimiz qalblarda faxr tuyg'usini uyg'otadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Turizmni rivojlantirish bo‘yicha 2021-2023-yillarda ham izchil islohotlarni davom ettiramiz. Ayniqsa, ziyorat turizmi va ichki turizmni rivojlantirishga alohida e‘tibor beriladi. Shuningdek, turizm ob‘ektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo‘l infratuzilmalarini yaxshilash uchun byudjetdan 1 trillion so‘m ajratiladi” deb ta‘kidlab o‘tgan edilar.

Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha har yili 200 mln.dan ortiq kishilar aynan ziyorat maqsadida turli ziyoratgohlarga, o‘zlari uchun muqaddas hisoblangan maskanlarga borib, diniy turistik sayohatlarga chiqmoqdalar.

Statistik ma‘lumotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yiliga 200 mln. xristanlar, 65 mln musulmonlar, 40 mln buddistlar, sintoistlar 30 mln, diniy ziyorat maqsadida o‘zlaring muqaddas ziyoratgohlariga sayohat uyushtirgan. Demak, dunyoda ziyorat midrasiyasi aktiv hisoblanib, sayyohlar asosan ruhan poklanish, buyurilgan amallarni bajarish, muqaddas maskanlarni ziyorat etishni maqsad qilishadi¹.

Darhaqiqat, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanish balki yalpi ichki mahsulot hajmini ortishi, hamda aholi bandligini ta‘minlash, turmush darajasi va sifatini oshirish, yurt farovonligi va taraqqiyoti yuksalishiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, har 30 nafar turist mamlakat turizmi sohasida bitta, unga turdosh tizimlarda esa ikkita yangi ish o‘rnini yaratishga turtki beradi. Har yili yurtimizga 70 davlatidan ikki millionga yaqin sayyoh tashrif buyuradi. Ular uchun madaniy-tarixiy turizm eng ommabop bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, mavjud 500 dan ortiq turistik kompaniyalarning 110 dan ortig‘i xalqaro sayyohlarni yurtimizga keng jalb etishda muhim rol oynamoqda².

Mamlakatimizda so‘ngi yillarni olib qaraydigan bo‘lsak, turizmni rivojlantirishdagi jarayonda xorijiy sayyohlar tashrif buyuruvchi ziyorat ob‘ektlarning

¹ Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 12 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | ASI-Factor: 1,3 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 Nuralibek Bozarov Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti-541b

² <http://uzbekistan-geneva.ch/ziyosat-turizmi-jadal-rivojlanadi.html>

infratuzilmasiga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda. "Turizm industriyasi iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida va mamlakat xalqlarni yaqinlashtirishda muhim rol o'ynaydi"¹.

O'zbekiston Respublikasida 2019-2025-yillarda turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari², O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-avgustdagi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni³, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagi PQ-3509-son "Kirish turizmini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori⁴, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6165-son va boshqa normativ – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish hamda ziyorat turizmini rivojlantirish, sayyohlar oqimini kengaytirish, ziyorat ob'ektlarida infratuzilmalarni yaxshilash hamda bo'sh turgan landshaftlardan oqilona foydalanish choralari ko'rilgan⁵.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti Surxondaryo viloyati Termiz tumani, Al-Hakim at Termiziy, Sulton Saodat, Kokildor Ota, Qirq Qiz majmualari hisoblanib, Surxondaryo viloyatida turistik korxonalar va tashkilotlar orqali ziyorat turizmini yanada rivojlantirib viloyat turizm iqtisodiy salohiyatini yanada yaxshilab yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari Dissertatsiyaning maqsadidan kelib chiqib, unda quyidagi vazifalar belgilangan:

-ziyosat turizm sohasini rivojlanishtirishning nazariy jihatlarini tadqiq qilish;

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan-molliiy yuksalish sari. 4-jild -T.: O'zbekiston.2020.-B.267

² lex.uz/docs/-4143188

³ <https://lex.uz/docs/-4474527>

⁴ <https://lex.uz/docs/-3549813>

⁵ lex.uz/docs/-5283956

-jahon ziyorat turizmi obyektlarini va ularning turizm faoliyatini tashkil qilishdagi ahamiyatini tasniflash;

-ziyosat turizmning tadrijiy rivojlanish bosqich ta'riflarini keltirib o'tish;

-viloyatdagi ziyorat turizm ob'ektlari va infratuzilmalarining joylashuvini o'rganish;

-ziyosat turizm sohasini rivojlanishida zamonaviy xizmatlarni o'rganish, tashkil qilish hamda amaliy takliflar ishlab chiqish;

-viloyatda ziyorat turizm rivojlanishining bugungi kundagi holatini tahlil qilish;

-viloyat ziyorat turizm resurslari aniqlash va ularning joylashuvi hamda infratuzilma holatlarini tahlil qilish;

-viloyatda ziyorat turizm imkoniyatlarini kengaytirish yo'llarini ishlab chiqish hamda xorijiy sayyohlar uchun qulayliklar yaratish maqsadida marshrutlar tuzish;

-Termiz tumanidagi ob'ektlarda kirish ziyorat turizmini barqarorlashtirish hamda turistik xizmatlarga oqilona narx o'rnatish strategiyasini ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

-Surxondaryo viloyatining ziyorat turizm salohiyatidan unumli foydalanishda mahalliy aholi hamda xorijiy sayyohlar uchun ziyorat ob'ektlarning 3D formatini ishlab chiqilgan;

- turistlar uchun qulayliklar yaratish maqsadida xamyonbob marshrutlar yaratish tizimini joriy etish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

-Termiz tumandagi Qirq Qiz, Kokildor Ota, Sulton Sodat arxeologik yodgorliklari yonida turistlar hamda mahalliy aholilar uchun tarixiy spektakllar tashkil etish, hamda suvener do'konlarni yuritishni davlat sherikchilik asosida tadbirkorlarga berishlik kerakligi taklif etilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Mazkur magistrlik dissertatsiya ishida olingan ilmiy xulosalar va amaliy takliflardan viloyatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishga mo'ljallangan hukumatning maqsadli dasturlarini

ishlab chiqishda, Madaniyat va turizm vazirligi va viloyat tuman hokimliklari amaliy faoliyatlarini takomillashtirish hamda xorijiy turistlar oqimini oshirish tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Shuningdek, tadqiqotning ishlab chiqilgan ilmiy takliflari va amaliy tavsiyalari mamlakatda ziyorat turizm muhitini yaxshilash usullarini ishlab chiqish va joriy etish orqali xorijiy turistlarni jalb qilishni faollashtiradi va bu jarayonning tizimi shakllanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili);

Xorijlik yetakchi olimlar tomonidan turizmning nazariy va metodologik masalalarini P.Kotler, J.Bowen, J.Makens, Chris Ryan, D.Lundberg, M.Krishnamurthy, Ch.Y.Gee, J.C.Makens, D.Cheyning tadqiqotlarida o'rganilgan¹. D.Harrison, D. Telfer, R.Sharpleyning ilmiy ishlarida esa turizmning rivojlanish bosqichlari, ayrim mamlakatlarda rivojlanish xususiyatlari ochib berilgan². M.Mowforth va I.Munt tadqiqotlarida globallashuv jarayonlarining turizmning rivojlanishiga ta'siri masalalari tadqiq etilgan³.

MDH olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turizmga xizmat ko'rsatish, va boshqarish masalalari o'rganilgan. MDH davlatlari olimlari bo'lgan Kasimova Adema Ramazanovna⁴, Sokolova Marina Valentinovna⁵, Xoroshevskaya Valeriya Valeryevna⁶, Ivanova Irina Sergeevna⁷, Xoseyn Moxannad¹ning

¹ Kotler P., Bowen J. Makens J. Marketing for Hospitality & Tourism Pearson International Edition 2014, USA., Chris Ryan. Recreational Tourism: Demand and Impacts/Channel View Publications, 2003. -358 p., Lundberg D., Krishnamurthy M. - Tourism Economics. New York: John Wiley Sons Inc. 2003. -210 r., Gee Ch. Y., Makens J.C., Chey, D. The Travel Industry. 3d. Wdit. -New York John Wiley Sons Inc. 2013. -250 r.

² Harrison, D. 2015. Development theory and tourism in developing countries: what has theory ever done for us? IJAPS, Vol. 11, Supplement 1, 53-82.; Telfer, D. 2015. The Evolution of Tourism and Development Theory. In Tourism and Development: Concepts and Issues, 2nd ed., ed. Sharpley, R. and Telfer, D., 48-57. Clevedon: Channel View

³ Mowforth, M. and Munt, I. 2009. Tourism and Sustainability: Development, Globalisation and New Tourism in the Third World. London: Routledge. pp. 376.

⁴ Kasimova Adema Ramazanovna Arxitekturoy formirovaniye etnokulturnykh turistskix klasterov (na primere avtoref dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata arxitektury Nijniy Novgorod – 2021-st 482

⁵ Sokolova Marina Valentinovna Turizm kak kulturno-istoricheskiy fenomen - doktor kulturologii avtoref Moskva-2007 st 396

⁶ Xoroshevskaya Valeriya Valeryevna Razvitiye kulturno-turistskix klasterov na osnove gosudarstvenno-chastnogo partnerstva kandidat nauk (na primere Novgorodskoy oblasti) -2019-s152

⁷ Ivanova, Irina Sergeevna Etnosotsialnaya politika v polietnichnom regione kak faktor razvitiya sfery sotsiokulturnogo servisa i turizma kandidat nauk-2017-s-205

tadqiqotlarida turizmning nazariy-metodologik asoslari, turizm iqtisodiyoti va uni tashkil qilish. masalalari yoritilgan.

Mamlakatimizning yetakchi olimlaridan bo'lgan N.T.To'xliyev, B.Safarov, A.A.Allaberganov, X.I.Axmedov, R.Abdumalikov, A.N.Narchaev, M.M.Muhammedov, D.X.Aslanova, B.N.Navro'z-zoda, T.Xoldorov, G.G.Nazarova, A.F.Saidov, R.A.Mullajonanova va boshqalarning ilmiy ishlarida turizm xizmat ko'rsatish, ziyorat turizm borasidagi mavjud muammolarning ayrim jihatlari va yechimlari respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish muammolari, hududlar kesimida ularning salohiyati shuningdek ziyorat turizmni rivojlantirish masalalariga keng etibor qaratilgan². Ammo ularning ilmiy ishlarida chekka hududlarda investitsion muhitni yaxshilash yo'llari va xorijiy investitsiyalar kirib kelmayotganligining sabablari shu bilan birga Surxondaryo viloyatining ziyorat turizm salohiyatidan oqilona foydalanish masalalarining yo'qligi mazkur magistrlik dissertatsiya mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

¹ Xoseyn Moxannad Опыт сотrudnichestva Rossiyskoy Federatsii so stranami Blijnego Vostoka v sfere kulturnoy politiki i religioznogo turizma v 1991–2018 gg.-2020

² Tuxliev N., Abdullaeva T. Menedjment i organizatsiya biznesa v turizme Uzbekistana. – T.: O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. - 2006. -367 s.; Pardaev M.Q., Atabaev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. -Samarqand: SamISI, 2006. -137 b.; Tashmurotov T., Agzamov S. Marketing mejdunarodnogo turizma - T.: 1998.; Narchaev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendentsiyalari DSc. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: TDIU, 2021 - 246 b.; Muxammedov va boshqalar Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. – S.: Zarafshon 2007. -299 b.; Aslanova D.X. Modeli formirovaniya turistskogo klastera za rubejom. //Servis, 2013. - №1. - S: 4-9; N.Navruz-zoda B., Ibragimov N.S., Navruz-zoda Z.B., Navruz-zoda Sh.B. Turistik hudud raqobatbardoshligi. Monografiya. Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durdoni nashriyoti, 2017 -156 b.; Pardaev O.M. Menejment. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2019. –248 b.; Abduvohidov A.M. Turizm elektron biznes. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU. Iqtisodiyot, 2020. -189 b.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendentsiyalari (Samarqand viloyati misolida). DSc. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2017. -265 b.; Eshtaeв A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida). DSc. dissertatsiya avtoreferati – Samarqand. 2019. Turaev B.X. Razvitie organizatsionno-ekonomicheskix mexanizmov funktsionirovaniya regionalnogo turizma: -dok. diss. avtoref., 2011. – 38 s.; Xamidov O.X. Vıbor konkurentnoy strategii predpriyatij na rınke turisticheskix uslug Uzbekistana: kand. diss. avtoref, 2006. -22 s.; Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2016. -254 b.; M.T. Alieva. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari: iqt. fan. dok. diss. avtoref. – S.: SamISI, 2019. - 77 b.; Ibadullaev N.E. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida). – iqt. fan. nom. diss. avtoref. – Samarqand, 2010. Ibragimov N.S. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinatsion menejment kontseptsiyasini qo'llash. – iqt. fan. nom. diss. avtoref, 2008. –23 b.; Mirbabaev B.Yu. O'zbekiston turizmida marketing va uning globallashuv sharoitida takomillashuvi. – iqt. fan. nom. diss. avtoref. 2008.–23 b.; Ro'ziev S.S. O'zbekiston madaniy turizm bozori va uning istiqbollari. – iqt. fan. nom. diss. avtoref. 2009. –21 b.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, monografik kuzatish, taqqoslash, induksiya va deduksiya, statik guruhlash, tizimli tahlil, grafik ifodalash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Mazkur magistrlik dissertatsiya ishida olingan ilmiy xulosalar va amaliy takliflardan viloyatimizda ziyorat turizmni rivojlantirishga mo'ljallangan hukumatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda, Madaniyat va turizm vazirligi va viloyat tuman hokimliklari amaliy faoliyatlarini takomillashtirish hamda xorijiy turistlar oqimini oshirish tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Shuningdek, tadqiqotning ishlab chiqilgan ilmiy takliflari va amaliy tavsiyalari mamlakatda ziyorat turizm muhitini yaxshilash usullarini ishlab chiqish va joriy etish orqali xorijiy turistlarni jalb qilishni faollashtiradi va bu jarayonning tizimi shakllanadi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 80 betdan iborat.

I-BOB ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARINING NAZARIY USLUBIY ASOSLARI

1.1-§. Ziyorat turizm rivojlanishtirishning nazariy asoslari

Turizm sohasining tez suratlarda o'sishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanganligi, davlatlar, mintaqalar o'rtasida iqtisodiy aloqalar hamda sport faoliyati rivoji, xalqlarning muloqotga intilishi, fan-texnika taraqqiyoti, xususan transport sohasidagi yutuqlar transport xizmatlari hajmining oshishi, aviareyslar sonining ko'payishida aks etgan bo'lib, iqtisodiyot tarmoqlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallashi ko'pgina tadqiqotchi olimlarni turizm sohasining rivojlanish xususiyatlariga e'tibor qaratishga majbur qilgan.

Jahonda eng qudratli integratsion soha sifatida turizm ko'plab mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atidan tezroq rivojlanib, uning xizmatlarida xalqaro eksportidagi ulushi ham oshib bormoqda. Jahon sayyohlik tashkilotining (JST) ma'lumotlariga ko'ra, "turizm iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilgan tarmoqlari orasida yoqilg'i va kimyo sanoatidan keyin uchinchi o'rinni egallagan holda, 2019-yilda jahon savdosining 7,0 foizini tashkil etgan¹". Yuzaga kelgan COVID-19 pandemiyasi oqibatida turizm sohasi "2021-yilda 2020-yilga nisbatan 4 foizga o'sganligi, jahon turizmining bevosita yalpi mahsuloti 19 foizga oshib 1,9 trillion dollarga yetganligiga qaramasdan, COVID-19 pandemiyasidan oldingi davrga nisbatan 72 foizga pastligicha qolayotganligi"² ichki turizmni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish orqali jahondagi yirik mintaqalar yalpi hududiy mahsulotida turizm xizmatlarining ulushini oshirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda turizm dunyo mamlakatlarida milliy iqtisodiyotning salmoqli daromad keltiruvchi sohalaridan biriga aylanib olgani ko'pchiligimizga ma'lum.

¹ <https://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284422456> - Tuesday, March 30, 2021 7:37:05 AM - IP Address:93.75.219.148

² <https://www.unwto.org/un-tourism-news-fitur-edition-2022>

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasining sayyohlik salohiyati jadal sur‘atlar bilan rivojlanib bormoda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qabul qilgan farmonida “...turizm tarmog‘i uchun, ayniqsa menejment va marketing sohasida malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, gidlar (ekskursiya yetakchilari) tayyorlash, turizm faoliyati subyektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va maksimallashtirish hamda malaka oshirish ishlari amalga oshirilmoqda...”¹.

Bugungi kunda turizm sohasi xizmat ko‘rsatish sohasining eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Turizm sohasi XX asrning oxiridan boshlab dunyoning ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida aholi daromadning asosiy tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda Respublikamizda diniy va ziyorat turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida turistlar oqimini shakllantirish va ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari dasturi”da “Ichki turizm yo‘nalishida faoliyat yurituvchi turoperatorlar bilan hamkorlikda respublikaning barcha hududlari qamrab olingan arzon narxlardagi ichki turizm mahsulot turpaketlarini ishlab chiqish hamda ularni joylarda keng targ‘ib qilish” yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan.

Bu borada, jumladan, O‘zbekistonda hududlardagi diniy va ziyorat turizm ob‘ektlarini inventarizatsiya qilish, mazkur ob‘ektlarga turistlar oqimini jalb qilish

¹ <https://kun.uz/uz/news>

choralarini ishlab chiqish, mahalliy, milliy va xalqaro ahamiyatdagi diniy turistik marshrutlarni loyihalash, ularning kompleks dasturlari va xaritalarini yaratish, joylarda diniy turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini oshirish yo'llarini asoslashga qaratilgan ijtimoiy geografik tadqiqotlarni o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatida mamlakatimizning turistik imkoniyatlariga alohida to'xtalib o'tib, "...biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur", ekanligini ta'kidlab o'tgan edilar. 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmonlari¹, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi 120-son "Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to'g'risida"²gi Qarori hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan.


Turizm turlari klassifikatsiyasi xorijiy va maxalliy olimlarning ishlari asosida tahlil qilingan bo'lib, turizm turlarining bir nechta klassifikatsiyalari ko'rib, ularni umumlashtirishga harakat qilingan.

Tadqiqot davomida sayohatning hududiy ko'lami, davomiyligi, mavsumiyligi, tashkillashtirish shakli, ijtimoiy maqomi, ob'ekti, maqsadi, ishtirokchilar soni va yoshi, jismoniy faolligi, harakatlanish vositalari kabi mezonlar bo'yicha tasniflash umumlashtirilib, turizm turlarining ko'p mezonli integral klassifikatsiyasi ishlab chiqildi buni ushbu rasmda ham ko'rishimiz mumkin (1.1.1-rasm). Diniy va ziyorat turizmining mohiyati tahlil qilinib, ularning bir-biridan ayrim jihatlarida farq qilishni ko'rishimiz mumkin. Diniy turizmni ajratishning bosh mezoni uning ob'ekti bo'lsa, ziyorat turizmining bosh belgisi uning maqsadidan iboratdir.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5283956>

² <https://lex.uz/docs/-5283956>

Yevropada turizmni rivojlantirishga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi o'tgan asrning 30-yillarida haq to'lanadigan ta'tillar vaqtida turli maqsadlarda kishilar sayohatlarni amalga oshirishi ko'paygandan so'ng boshlangan. Haq to'lanadigan ta'tilning birinchi haftasini keyin ikkinchi haftasini olganlaridan so'ng kishilar dam olish maqsadida dengiz tomon oshiqishgan.



1.1.1-rasm. Turizm turlarining integral tizimli klassifikatsiyasi¹

Bu holat Belgiya va Fransiya hukumatlarini turizm vazirligini tashkil etib, turizm infratuzilmasini rivojlantirish jumladan, yo'llar, temir yo'llar, turistlar tashrif buyuradigan joylarga mexmonxonalar, restoranlar hattoki xojatxonalar qurishga jiddiy e'tibor berishga sabab bo'lgan².

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) milliy iqtisodiyotda va mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarda turizmning ahamiyati oshib borishi bilan sohaga jiddiy e'tibor qarata boshladi. Turizm va

¹ To'rayev Q. T. O'zbekistonda diniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-geografik asoslari Samarqand– 2022-12 b

² Sokolova M. V. Istoriya turizma: ucheb. posobiye / M.V. Sokolova. - 7-e izd., ispr. - M.: Akademiya, 2012. - S. 262.

sayohatlar bo'yicha BMT ning birinchi konferensiyasida (1963-yil Rim) "turist", "ekskursant", "vaqtincha tashrif buyuruvchi" tushunchalariga ta'rif berilgan¹.

Turizm tushunchasining mohiyatini to'liqroq anglash uchun avvalo uni sayohat tushunchasidan farqlab olish, jarayon sifatida belgilarini: joy o'zgartirilishi; boshqa bir joyga kelib joylashish; maqsadi yashab qolish va tashrif manzilida mehnatga haq to'lovi bo'lmasligi; tashrif muddatini farqlash lozim.

K. Krapf turizm ehtiyojlarini aniqlashda sayohatning asosiy motivlari sifatida dunyoni o'rganish, madaniy va diniy sabablar, davolash-sog'lomlashtirish, tabiatdan bahra olish kabi guruhlarga ajratish taklif etilgan bo'lsa, Ch.Paxuk barcha motivlarni uch guruhga, ya'ni bilish, iqtisodiy va psixologik motivlarga ajratishni taklif etadi. Piramidalar hozirgi kungacha saqlanib kelayotgan eng qadimgi mo'jizalardan biri bo'lib, ular Misrga kelgan turistlar uchun tomosha qilinadigan ob'ektlar orasida eng mashhur joylardan biri bo'lib hisoblanadi. Boshqa san'at yodgorliklari, masalan Xindistonda Toj mahal, Yunonistonda Akropol, Italiyada Kolizey, O'zbekistonda Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlar turistlarni jalb etishda asosiy omil rolini o'ynaydi. Noyob madaniy yodgorliklar u yoki bu mamlakatning monopol holatini belgilab beradi va xorijiy turistlarda unga yana bir bor kelishiga ishtiyoq uyg'otadi.

Insonlarning ruhiy ehtiyojlari sababli diniy, ziyorat, marosim sayohati, yaqinlarini ko'rish va uchrashish maqsadida sayohatlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Mamlakatimiz Prezidentining "...turkiy va islom sivilizatsiyasining tarixiy yodgorliklari, buyuk olimlar, shoir va mutafakkirlar, rassomlarning merosi asrab-avaylanadi. Bu bebaho boylik butun insoniyat mulki bo'lib, undan butun dunyo bahramand bo'lishi kerak. ziyorat turizmini faol rivojlantirish bunga xizmat qiladi²" degan fikrlari ziyorat turizmini rivojlantirishda mamlakatimiz salohiyatidan unumli foydalanish zarurligini ko'rsatmoqda. 2018-yil davomida jahon miqyosida musulmon turistlar soni 140 millionga, ularning xarajatlari 177 milliard AQSH dollariga (2023-

¹ Гезгала Я. Туризм в народном хозяйстве. М.: Прогресс, 1974. 212 с.

² Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. -B. 266-267.

yilda 274 milliard dollar bo'lishi kutilmoqda) teng bo'ldi. Diniy, ziyorat turizmdan eng ko'p foyda oladigan mamlakatlar Yaqin Sharq mintaqasi mamlakatlari hisoblanadi, New Research Centre ma'lumotlariga ko'ra, 2060-yilga kelib 3 milliard inson o'zini musulmon deb hisoblay boshlaydi va bu yer yuzidagi har uchdan bir kishini tashkil etadi¹.

Shunday qilib sayohatchilarni sayohatga chiqishga undovchi asosiy omillar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, kishilarning ehtiyojlari xilma-xilligi sababli turizm turlari ham ko'payib bormoqda va bu turizmning xozirgi kunda jadal rivojlanishiga, hamda turli mamlakatlarda iqtisodiyotning yetakchi tarmog'iga aylanishiga sabab bo'lmoqda.

Turizmning aholi bandligi, ijtimoiy tengsizlik, daromadlar darajasi, daromadlar taqsimoti va kambag'allikni qisqartirish ta'siri masalalari Bleyk, Arbech, Sinkler kabi tadqiqotchilar izlanishlarining asosini tashkil etgan bo'lsa², to'lovga layoqatli talab va prognozlash masalalari Krouch, Ritchi, Lim, Saymon, Li, Song, Vitt tadqiqotlarida, uzoq muddatli turizm siyosatini shakllantirishni muhim dastaklaridan biri sifatida prognozlash Archer, Frechling tadqiqotlarida o'z aksini topgan³.

Turizmning mohiyatini ochib berish, uni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotchi olimlarning izlanishlarini tadqiq qilish uchun turli soha vakillari jumladan, iqtisodchi, siyosatchi, psixolog, marketologlar kabi ko'plab mutaxassislarning faoliyatlarini kompleks tarzda o'rganish kerak bo'ladi.

O'rta Osiyda O'zbekistonning qadimiy Buxoro va Samarqand, Toshkent, Termiz, Xiva va boshqa shaharlarida diniy turistik resurslar mavjud. Ziyoratlar, odatda, turli dinlarning taniqli namoyandalarining qadamjolariga tashrif buyurishni aks ettiradi. Ba'zi ziyoratgohlar va joylar o'zlarining daromadlari uchun butunlay diniy turizmning

¹ [www.crescentrating.com \(global-muslim-travel-index-2019\)](http://www.crescentrating.com/global-muslim-travel-index-2019)

² Wattanakuljarus, A., Coxhead, I. (2008), Equilibrium Analysis for Thailand, *Journal-of-Policy-Modeling*, Vol. 30, No. 6, pp. 929-955.; Blake, A., Arbache, J. S., Sinclair, M. T. and Teles, V. (2008). *Tourism and Poverty Relief*. *Annals of Tourism Research*, Vol. 35, No. 1, pp. 107-126.

³ Archer, B. (1980), *Forecasting Demand, Quantitative and Intuitive Techniques*, *International Journal of Tourism Management*, March, pp 5-12.; Frechtling, D.C. (2001). *Forecasting tourism demand: Methods and strategies*. Oxford, UK: Butterworth-Heinemann. P.279.

kuchiga tayanadilar. Bu, o'z navbatida, atrofdagi hududlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Biroq, taniqli olim Vukonichning so'zlariga ko'ra, diniy sayohatning iqtisodiy jihatlarini din - turizm atamasiga nisbatan eng kam o'rganilgan mavzu bo'lib, tadqiqotchilarni faqat bitta muqaddas joy ko'rib chiqilayotganda qiziqtiradi. Diniy ziyorat ziyoratchilar tashrif buyuradigan hududlarda iqtisodiy generator vazifasini bajarib kelgan, chunki xizmatlar ularning ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqilgan. Bu bugungi kunda ham xuddi shunday. Chunki ko'p joylarda diniy joylar asosiy turistik diqqatga sazovor joylar bo'lib, misol uchun, Santyago-de-Kompostela, Medjugorje, Lourdes va Makka va boshqa ziyorat ob'ektlar kabilarni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda ziyorat turizm haqida o'zbek islomshunos olimi B.M. Bobojonov, Markaziy Osiyoda ziyorat ob'ektlarining eng keng tarqalgan turi, bu – “muqaddas qadamjolar” hisoblanishini aytib o'tgan. Surxondaryo viloyati tarixiy ob'ektlarini me'morchilik, arxitektura nuqtayi nazaridan o'rganish olimi I. Azimovning tadqiqotlarida uchratishimiz mumkin. Tasavvuf namoyandalarining qadamjolari va ziyoratgohlari to'g'risida A. Mamanazarov, B. Sattorov, Poslavskaya. O, S. Jo'rayeva ham o'z ilmiy ishlarida ziyorat turizmi tarixiga atroflicha to'xtalib o'tgan. Jumladan, D. Abramson va E. Karimov ham muallifligida yozilgan maqolada, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ziyoratning ahamiyati, turli davrlarda unga bo'lgan munosabatlar tahlil qilinadi¹. Va bu shunchaki sayohat emas, bu o'zligingni anglash uchun imkoniyat, ruhiy poklanishga umid, duo va istaklar ijobatini tilash, iymonga eltuvchi yo'l deb aytib o'tishgan.

Darhaqiqat, O'zbekiston turistik resurslarning boyligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda diniy turizm, aziz qadamjolarini ziyorat qilish ob'ektlari yetarlicha topiladi. Mustaqallik yillarida diniy qadamjolariga davlat tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz qo'nim topgan maskanlarni qayta tiklash,

¹ Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 12 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | ASI-Factor: 1,3 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 Nuralibek Bozarov Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

obodonlashtirish, ta'mirlashga jiddiy e'tibor berganligi tufayli ziyoratgoh maskanlar 1.5 mlrd musulmon dunyosini o'ziga tortmoqda.

Diniy ziyoratgohlar kam mablag' hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasizdir. Shu sababli, yurtimizning barcha viloyatlaridagi o'nlab, yuzlab diniy qadamjolarini qayta rekonstruksiya qilish va mahalliy hamda xorijlik sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish choralari ko'rilmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizda joylashgan islom madaniyati va tarixi bilan bog'liq madaniy meros ob'ektlarini Islom hamkorlik tashkilotining Islom madaniy merosi ro'yxatiga kiritish choralari amalga oshirilmoqda. Ichki va tashqi sayyohlikni keng yo'lga qo'yish, viloyatda turizm sohasini modernizatsiyalash, sohani barqaror rivojlantirish, turizm markazlari hisoblangan hududlarda turistik, maishiy va aloqa-axborot infratuzilmalarini rivojlantirish, mahalliy va xorijiy mehmonlarga xalqaro standartlarga muvofiq xizmatlar ko'rsatishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2-§. Jahon ziyorat turizmi ob'ektlari va ularning turizm faoliyatini tashkil qilishdagi ahamiyati

Jahon bo'yicha yoki biror bir alohida olingan mamlakat miqyosida turizmning rivojlanishi bir qator omillar bilan shartlashtiriladi. Shuni bilamizki, omil deganda qandaydir jarayonning harakatga keltiruvchi va uning xususiyatini yoki xususiyatlaridan birini ochib beruvchi sababi tushuniladi. Ziyorat turizmning rivojlanish omillari deganda ob'ektiv ta'sir etuvchi hamda ta'sir etuvchi turli qonunlar natijasida yuzaga keluvchi turizmni rivojlantirish sharoitlari tushuniladi. Turizmni rivojlantirish omillarning turli xil tasniflari keltirish mumkin. Odatda, turizmni rivojlantirish omillarini ko'chmas va dinamik turlarga ajratiladi. Ko'chmas omillarga asosan tabiiy-geografik va tarixiy madaniy omillarning yig'indisi kiritiladi. Ular o'zgarmas va doimiy ahamiyatga ega bo'lib, inson faqatgina ularga yetishishni osonlashtirgan holda ularni turistik ehtiyojlarga moslashtira oladi. Dinamik omillar ikkinchi, yanada kattaroq guruhga kiritiladi. Ular vaqt va makon bo'yicha o'zgarib

turuvchi ahamiyat-bahoga ega bo‘ladi. Ularning qatoriga ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy-texnik, siyosiy, madaniy va boshqa omillar kiradi.

Hozirgi jamiyatda turizmning rivojlanishiga asosiy sabab bo‘lib ijtimoiy iqtisodiy va madaniy omillar xizmat qilmoqda. Shularning eng birinchisi ish vaqtining qisqarishi bo‘ldi — masalan, Germaniyada XX asrning oxirgi 15 yilida insonlarning ish vaqtlarining o‘rtacha yillik ish soatlari 27 foizga qisqardi, puli to‘lanadigan ta‘tilning davomiyligi so‘nggi 50 yil ichida 2,5 barobar ortdi, biroq, shuning bilan birgalikda ishning intensivligi ham ortib bordi¹. Bularning barchasi odamlarda bo‘sh vaqt miqdorining ortishi va ishdagi zo‘riqishlarning o‘sishiga olib keldi.

Hozirgi rivojlanayotgan zamonda globallashuv sayyohlikni butun dunyo bo‘ylab ommaviy dam olish mashg‘ulotiga aylantirdi. Jahon sayyohlik tashkiloti sayyohlarga “ular bir yildan ko‘p bo‘lmagan vaqt davomida dam olish, ishlash va boshqa maqsadlar uchun odatdagi muhitdan tashqarida sayohat qilishadi va qolishadi” deb ta‘rif bergan.

Jahon ziyorat turizmida mamlakatlar ichida Fransiya, Ispaniya, AQSH, Italiya, Buyuk Britaniya, Xitoy mamlakatlari yetakchilik qilmoqda. Xorijdan mehmonlarni qabul qilish soni bo‘yicha Fransiya bir necha yillardan buyon yetakchilik qilib kelmoqda. Bugungi kunda Fransiyaga dunyo bo‘yicha xalqaro turizmga chiqqan turistlarning 10% dan ortiqrog‘i to‘g‘ri kelmoqda. Fransiya turistlarni qabul qilish bo‘yicha yetakchi o‘rinda turgan bo‘lsa ham, turizmdan daromad olish bo‘yicha AQSHda yetakchilik tegishliligicha qolmoqda. Hozirda AQSH jahon bo‘yicha xalqaro turizmdan olingan daromadning 10 %idan ortig‘ini oladi. Shuningdek, AQSH ichki turizmning o‘zidan har yili 300 milliard dollarga yaqin daromad olmoqda. So‘nggi yillarda Xitoyga amalga oshiriluvchi turistik sayohatlarning miqdori yil sayin oshib bormoqda. Narxlarning arzonligi bilan jahon turizmiga kirib borayotgan Xitoy turizm dan olinayotgan daromadlar bo‘yicha ham, turistlarni qabul qilish bo‘yicha ham dunyoning yetakchi besh mamlakati qatoriga kirib oldi².

¹ xalqaro-sayyohlik-rivojlanishing-iqtisodiy-mohiyati.htm

² Kornilova, Firuza Kuchkarovna. Xalqaro turizm bozori: 27-39 betlar

Dunyodagi eng yaxshi sayyohlik joylarining ko'rsatkichlari 2019-yilda dunyo bo'ylab xalqaro sayyohlar soni 1,460 milliardga yetganini ko'rishimiz mumkin, bu esa 2018-yilga nisbatan 3,7 foizga ko'pdir¹. Xalqaro ziyorat turizm jahon iqtisodiyotining eng muhim, barqaror va dinamik holda rivojlanib borayotgan asosiy sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, xalqaro turistik xizmatlar ko'rsatish va servis sohasi tarkibi ham tubdan o'zgardi. Jahon turizm bozori borgan sari xilma-xillashib, aholining ijtimoiy sohasida turistik mahsulotlarga bo'lgan talabi va ehtiyoji ortib bormoqda. Turizmning ommaviy uyushgan holdagi shakli kengayib, turistlarga xizmat ko'rsatish sifati transport, joylashtirish, ovqatlantirish, dam olish, hordiq chiqarish va boshqalar borgan sari rivojlanib bormoqda. Xilma-xil turistik mahsulotlarni taklif etuvchi maxsus turistik tashkilotlar firmalar soni ko'payib bormoqda.


Jahon tovar va xizmatlar eksportida hozirgi paytda turizm ulushiga butun jahon eksportining 8% ga yaqini, jahon xizmatlar savdosining 30%, jahon yalpi mahsulotining 11%, jahon kapital quyilmalarining 9%, jahon iste'mol harajatlarining 11%, butun dunyo soliq tushumlarining 5%iga to'g'ri kelmoqda². Bundan tashqari, turizm aholi bandligiga anchagina ta'sir o'tkazmoqda. Mutaxassislar fikricha, hozirgi zamon turizmi va uning bilan bog'liq sohalarida jahondagi har sakkizinchi xodim band.

BTT turizm turlari bo'yicha quyidagi tasnif (klassifikatsiya)ni kiritishni taklif qilgan: ichki, kirish va chiqish turizmi. Xalqaro turizmni tasniflash (klassifikatsiyalar)ning asosiy mezoni bo'lib, turistlarning davlat chegaralarini kesib o'tishi hisoblanadi. Buning ustiga mazkur tasnif (klassifikatsiya)larni mamlakatlar

¹ <https://www.unwto.org/tourism-statistics>

² <https://www.unwto.org/tourism-statistics>

uchun ham, har bir aniq mintaqa, manzil uchun ham qo'llash mumkin (1.2.1-rasm).



1.2.1-rasm Turizm yagona tizm sifatida¹

Xalqaro turizm klassifikatsiyasini keltirish bo'yicha ko'proq yoyilgan belgilar taklif tipi, safarni uyushtirish usuli, sayohat maqsadi, harakatlanish usuli hisoblanadi. Xilma-xil sayohatlar ma'lum guruhlar orasidan zarurlarini ajratish, turizmning ziyorat turi ko'p jihatdan tur bo'yicha xizmatlar to'plamini, narx belgilanishini taqozo etadi.

Xalqaro diniy turizm, hozirgi kunda xalqaro turizmning eng muhim tarmoqlaridan biri diniy ya'ni ziyoratchilik turizmi bo'lib hisoblanadi. Diniy turizmning shakllanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ya'ni uning ilk bor vujudga kelishi antik davrlarga to'g'ri keladi. Diniy turizmning asosiy paydo bo'lgan maskanlari qadimgi greklar va rimliklar vatani bo'lib, qadimda greklar va rimliklar ibodatxonalar va cherkovlar qurib, ularda sig'inishganlar. Qadimgi bitiklardan shunisi ma'lumki, Elladaning eng mashhur ibodatxonasi birinchi bor Delfax shahrida qurilgan bo'lib, ushbu ibodatxona butun greklar olamida eng mashhur va u go'yoki har qanday

¹ //uzbekistan.travel/uz/v/ziyorat-turizmi/

savolga tangri nomidan qat'iy javob beruvchi karomatli kohin, sajdagoh maskani bo'lganligini bilib olishimiz mumkin. Rivoyatlarga ko'ra, minglab darvishlar mana shu ibodatxonaga kelishib, o'zlarini qurbon qiluvchi majusiylar ruxoniysi avliyo Pifining bashoratlarini tinglashganlar. O'rta asrlar davriga kelib, diniy turizm yangicha tus ola boshladi. Muqaddas diniy sajdagoh joylarga borib ziyorat qilib kelish ommaviy tus olib, salb yurishlari kabi shaklga aylanib ketdilar. Ayniqsa, ziyorat qilish harakati XV asr oxiri va XVI asr boshlariga kelib eng yuqori darajaga ko'tarildi.

Hozirgi kunga kelib dunyoda ziyoratchilik sayyohligining 10 dan ortiq yirik markazlari mavjud bo'lib, ular yer sharining deyarli hamma qit'alarida joylashgan:

Xristian Yevropasi:

xristianlik va boshqa ko'psonli dinlar bilan mustahkam o'rin egallovchi Shimoliy Amerika;

Xristianlik va an'anaviy dinlar bilan Lotin Amerikasi;

Islomni qabul qilgan Shimoliy Afrika;

Islom hukmron va alohida xristianlik va an'anaviy dinlar mavjud G'arbiy va Sharqiy Afrika;

Buddizm, islom, xristianlik va hinduzimni egallagan Janubiy-Sharqiy Osiyo;

Buddizm bilan (asosan lamaizm) mustahkamlangan Markaziy Osiyo;

Islom hukmron O'rta Osiyo;

Islom va xristianlik, iudizm bilan mustahkamlangan G'arbiy Osiyo;

Iudizm va buddizm tarqalgan, shuningdek xristianlik, jaynizm, sikkizm va islom mavjud Janubiy Osiyo.

Xristian dini markazlari hozirgi kunda xristian diniga mansub bo'lgan yer yuzasidagi xalqlarning muqaddas sig'inishadigan joylari juda ko'p bo'lib, ularning aksariyat qismi Yevropada Rim (Italiya), Parij va Lura (Fransiya). Fotima (Portugaliya), Varshava (Polsha), Monserrat (Ispaniya) shaharlarida joylashgandir. Xristianlarda eng qadrli sajdagohlaridan biri - bu Parij shahridagi Notr-Dam ibodatxonasi bo'lib, bu ibodatxona Iusus Xristosning chillak qilinishi va o'limi bilan

bog‘liq muqaddas joydir va butun Fransiya sayyohlarni o‘ziga jalb etuvchi maskan bo‘lib hisoblanadi. Notr-Dam ibodatxonasi butunlay tog‘olcha daraxti materialidan yasalgan katta bir koshonadir, unda 1985-yildan boshlab har yili butunjahon xristian yoshlarining kuni o‘tkazilib kelinmoqda shu bilan bir qatorda, shuni ham qayd qilish kerakki, hozirgi kunda ham Yevropaning boshqa hududlarida ham, jumladan Belgiyaning Bryuge, Italiyaning Turin, Fransiyaning Lurd, Polshaning Yasna-Guru shaharlaridagi muqaddas qadamjoylar xristian diniga e‘tiqod qiluvchi millionlab ziyoratchi turistlarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

Buddizm dini o‘zining keng ko‘lamligi jihatidan dunyoda xristian va islom dinlaridan keyin uchinchi o‘rinni egallaydi. Buddizm ilk bor qadimgi Hindiston hududida eramizdan oldin VI-V asrlarda paydo bo‘lgan. Keyinchalik u Janubiy Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo qisman O‘rta Osiyo va Sibirga tarqalgan. Hozirgi kunda buddizm diniga e‘tiqod qiluvchilar Xitoydagi Himolay tog‘ida joylashgan muqaddas Lxasa shahriga ziyoratga borishadi. Shahar dengiz sathidan 3650 metr balandlikda joylashgan bo‘lib, u yerda Dalay-Lama monastri va juda katta saroy joylashgan bo‘lib, ushbu saroy XVII asrda qurilgan va mingdan ortiq xonalardan iboratdir. Bu saroyda o‘n mingga yaqin sig‘inadigan narsalar va 20 mingdan ortiq turli xil haykallar mavjud. Shu bilan birga Dalay–Lama saroyida butunjahon buddizm dini boshqarmasi joylashgan.

Buddizm dinining ikkinchi bir muqaddas, sajdagoh markazi Shri Lanka davlatining Kandi shahridagi ziyoratgohi bo‘lib, shaharning markaziy qismida Dalida Maligava ibodatxonasi joylashgan bo‘lib, unda Buddaning chap qoziq tishi hanuzgacha saqlanib kelinmoqda. Rivoyatlarga ko‘ra, Buddani olovda kuydirish (krematsiya qilish) chog‘ida uning shogirdlaridan biri tishini sug‘urib oladi. Ushbu tish Hindistonda sakkiz asr davomida saqlanadi va hind malikasi Xemalakta xonim tomonidan yashirincha Shri-Lankaga olib kelgan. Buddaning tishi muqaddas va mo‘jiza sifatida hamon saqlanib kelinmoqda. Har yili iyul oyining oxiri va avgust oyi boshlarida Kandi shahrida “Tish marosimi” bayrami o‘tkaziladi va u bezatilgan fillarda butun shahar

ko'chalari bo'ylab tantanali ravishda namoyish etiladi. "Tish marosimi" bayrami butun dunyo bo'yicha buddizm diniga e'tiqod qiluvchi ziyoratchi sayyohlar bilan to'lib-toshib ketadi va ushbu tantanalar qariyb o'n kun davom etadi. Buddizm dinida haykallarga ham sig'inish va sajda qilish keng tarqalgan. Masalan, Yaponiyaning Osakadan uncha uzoqda bo'lmagan Nara shahrida Todayzi ibodatxonasi bo'lib, unda dunyoga mashhur bo'lgan Buyuk Budda bronza haykali mavjud. Uning balandligi 16 metrga yetadi. Ushbu muqaddas sajdagohga keladigan sayyohlar soni juda ko'pdir.

Musulmonlar dini markazi Saudiya Arabistoni yarim orolda joylashgan bo'lib, u uch tomondan Arab dengizi, Qizil dengiz Fors ko'rfazining suvlari bilan yuvilib turadi. Bu hudud g'oyat xosiyatli o'lka bo'lib, yer yuzida birinchi inson sivilizatsiyasining qadimiy markazlaridan biridir. Yarim orolining aksariyat qismini sahro va cho'llar tashkil qiladi. Lekin oz bo'lsada, unumsiz dashtu, sahroda obod vohalar, ensiz hosildor yerlar ham uchraydi. Qizil dengiz sohili bo'ylab cho'zilib yotgan Hijoz o'lkasi o'zining ikki shahri Makka va Madina bilan dunyoga dong taratgan. Bu yerga dunyoning to'rt tomonidan musulmon diniga e'tiqod qiluvchilar Makka shahriga ziyoratga–Hajga kelishadilar Bekaa vodiysida joylashgan Makka–Muhammad payg'ambarning tug'ilib, o'sgan shaharidir. Shahar o'zining "Ka'ba" deb atalmish qadimiy muqaddas imorati bilan mashhurdir. "Ka'ba" ya'ni "Xudoning uyi" deb ataladi. Rivoyatlarga qaraganda, uni Odam Ato bunyod etgan, ammo imorat bir necha marta vayron bo'lgan va qaytadan tiklangan. Bir qancha asrlar o'tgandan keyin, Ibrohim payg'ambar Makka shahriga qadam qo'yadi va o'z qo'li bilan "Ka'ba"ni qayta quradi. Uning ichki qismiga Tangri tomonidan osmonu falakdan tashlangan meteorit toshni joylashtiradi. Bino to'g'ri to'rt burchakli bo'lib qad ko'taradi. "Ka'ba" joylashgan maydon "Haram" yoki "Muqaddas makon" deb yuritiladi.

Meteorit toshni arablar "Hojar-al-Asvad" yoki "Muqaddas Qora Tosh" deb ataydilar. Makka shahriga tashrif buyurgan ziyoratchilar Ka'baning atrofida uning Qora Tosh quyilgan burchagidan boshlab yetti marotaba aylanib o'tishadi va tavob qilishadi. ziyoratchilar so'ngra yetti bor Safo tog'iga, yetti bor Ma'vo tog'iga

chiqishadilar. Undan so‘ng Arofat tog‘iga tashrif buyurib, haj amallarini bajarib qaytishadilar. Muqaddas – “Ka‘ba” joylashgan maydonda Saudiya Arabistoni podshohligi tomonidan qurilgan musulmon olamidagi eng katta mo‘jizakor “Al-Haram” masjidi qad ko‘targan. Har yili bu yerda Qurbon hayiti bayrami o‘tkaziladigan tantanalarda qatnashish uchun kelgan ziyoratchilarning umumiy soni 2 mln. kishidan oshib ketadi.

Madina-Muhammad s.a.v payg‘ambarimizning dafn etilgan shahri bo‘lib, El-Hamd vohasida joylashgan. ziyoratchilar haj amallarini bajarib bo‘lganlaridan keyin payg‘ambarimiz qabrini ziyorat qilish uchun Madina shahriga tashrif buyurishadilar.

Shuni qayd etish joizki, musulmon olamida ziyorat qilish makonlari ham anchagina. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa O‘zbekiston Respublikasida ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari judayam ko‘pdir.

Ular qatoriga Janubiy Qozog‘iston viloyati, Turkiston shahridagi Axmad Yassaviy maqbarasi, Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Zangiota majmuasi, Toshkent shahridagi Shayx Xivanda Taxur maqbarasi, Qaldirg‘och-biya maqbarasi, Yunusxon maqbarasi, Hazrati Imom majmuasi, Abubakr Muhammad Kaffal Shashi maqbarasi, Shayx Zayniddin bobo maqbarasi, Samarqand viloyati Payariq tumani Hartang qishlog‘idagi Imom Al-Buxoriy majmuasi, Oqdaryo tumani Dahbed qo‘rg‘onidagi Maxtumi A‘zam maqbarasi, Samarqand shahridagi Shohi Zinda, Amir Temur, Ruhobod, Xo‘ja Doniyor, Motrudiy, Murod avliyo, Xo‘ja Axror Vali, Oq saroy, Cho‘ponota maqbaralari, Buxoro shahridagi–Ismoil Samoniy, Chashmai Ayub, Sadriddin Buharzi, Bohovuddin Naqshbandiy, Buyon Kulixon, Chor Bakr maqbaralari, Xorazm viloyatida Uch avliyo, Said Allovuddin maqbarasi, Qashqadaryo viloyatida–Jahongir, Dorus Saodat, Dorut Tilovat majmuasi, Ko‘k gumbaz masjidi, Surxondaryo viloyatida - Hakim at-Termiziy majmuasi, Sulton Saodat ibodatxona yodgorligi, Fayoztepa ibodatxonasi, Sheraboddagi Iso-Termiziy ziyoratgohi, Jizzax viloyatida Sadr Vaxs avliyo (Avliyoota) majmuasi, Farg‘ona viloyatida Daxmon Shaxon go‘rxonasi,

Mozorixon maqbarasi kabilar ziyoratchi sayyohlarni o'ziga jalb qilib keladigan maskanlar bo'lib hisoblanadi.

1.3-§. O'zbekistonda ziyorat turizmning tadrijiy rivojlanish bosqichlari

O'zbekistonda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari qatorida turizm sohasining markazlashgan ma'muriy boshqaruv tizimi 1971- 1991-yillar davriga to'g'ri keladi. Albatta, Bu davrlarda salbiy oqibatlar ham ko'zga tashlana boshladi. Qurilmay qolgan turistik-rekreations maqsadidagi ob'ektlar sonining ko'payishi, mavjudlarida esa mijozlarga ko'rsatilgan xizmatlarning sifati bo'yicha ko'plab e'tirozlar paydo bo'la boshlaganligi va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ijtimoiy tadqiqotlarga ko'ra, mehmonxonalar, turbazalar, dam olish uylari hamda pansionatlar tomonidan taklif qilinadigan 50 foizgacha bolgan barcha xizmatlar fuqarolarning noroziligini keltirib chiqargan. Joylashtirish va ovqatlanish xizmatlari bilan birga, hordiq chiqarish va tibbiy xizmat ko'rsatish talab darajasida bo'lmagan. Turistik xizmat turlari va hajmi sezilarsiz va sifatsiz bolgan. Bugungi kunda O'zbekistonning turizm sohasidagi rivojlanishi shartli ravishda beshta bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, 1991- yildan keyin milliy turistik xizmatlar bozori shakllana boshladi. Aynan shu davrda respublika o'zining iqtisodiy mustaqilligini hamda mustaqil ravishda tashqi dunyo bozorlariga chiqishini e'lon qildi. Bu davrda qabul qilingan tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi qonun turistik xizmatlarni sotuvchi korxonalariga yangi imkoniyatlar yaratdi. Natijada, tarmoqda yangi boshqaruv tizimini shakllantirish, turistik biznesni yuritishga yordamlashadigan qo'shimcha biznes turlarini yaratish, sohaga xizmat qiladigan bank, audit, maslahat xizmatlarini tashkil etish, viloyatlarda turizm tarmog'ining mintaqaviy bo'linmalarini tuzish, xalqaro miqyosda turizm mahsulotini reklama qilish, xususiylashtirilgan turistik korxonalarini litsenziyalashtirish kabi masalalarga alohida e'tibor berildi.

Mustaqillikdan keyin turizm sohasida bir vaqtning o'zida uchta muhim jarayon amalga oshirildi:

eski tizimdagi korxonalar va tashkilotlarning tanazzulga uchrashi (ekskursiya byurosi, sayohat byurosi), o'zlarining tuzilishi va faoliyat turiga ko'ra yangi xizmat ko'rsatish talablariga javob bermay qoldi;

turoperator va turagent sifatida yangi tashkilotlar tuzildi;

eski turistik korxonalar qayta tiklash yo'li bilan O'zbekiston va xorijiy iste'molchilar talab qiluvchi turistik mahsulotni ishlab chiqish yo'lga qo'yildi.

1992-yilda respublikada "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi tashkil etildi va turizm sohasida bu kompaniya barcha tashkiliy, boshqaruv hamda muvofiqlashtirish funksiyalarini amalga oshira boshladi. 1993-yilda "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi Butunjahon turizm tashkilotiga (BTT) haqiqiy a'zo bo'lib kirdi va bu jarayon, o'z navbatida, xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. 1994-yilda BMT ning YUNESKO tashkiloti hamda O'zbekiston hukumatining tashabbusi bilan Samarqand shahrida Buyuk Ipak yo'lidagi shaharlarda xalqaro turizmni rivojlantirish bo'yicha Samarqand Deklaratsiyasi qabul qilindi¹. Bu bosqich mobaynida, ya'ni 1994-yilda ishlab chiqilgan "Turistik korxonalar xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturi" chuqur tizimli - institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishda juda katta ahamiyat kasb etdi. 1994-1995-yillar mobaynida "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasining 87,8 foiz turistik ob'ektlari xususiylashtirildi va davlat tasarrufidan chiqarildi. Amalga oshirilgan o'zgarishlar turistlarni qabul qilish shaklini jadallik bilan rivojlantirishga xizmat qildi. 1995-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining "Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni Buyuk Ipak yo'lida turistik mahsulotni tiklash borasida strategik ahamiyatga ega boldi. Bu, o'z navbatida,

¹M.R.Boltaboev, I.S.To'xliyev, B.Sh.Safarov, S.A.Abduxamidov Turizm: nazariya va amaliyoti Toshkent-2018 402-b

O‘zbekistonda turizm sohasidagi islohotlarning ikkinchi bosqichini boshlab berdi. Natijada Buyuk Ipak yo‘lidagi shaharlar va turistik manzillar ro‘yxatga olindi, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduholiq Gijduvoni, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom al-Motrudiy, Mahmudi A‘zam, Hakim at-Termiziy, Hazrati Imom, Shayx Shamsiddin

Kulol, Burxoniddin Margiloniy, Buxorodagi Chor Bakr kabi allomalarimizning maqbaralari ta‘mirlandi va ziyoratgoh majmualarga aylantirildi. 1998-yildan boshlab, Toshkent shahrida muntazam ravishda “Buyuk Ipak yo‘lida turizm” nomli Xalqaro turizm yarmarkasi tashkil etila boshlandi, mehmonxonalaridagi xalqaro talablarga javob beruvchi o‘rinlar soni 4,8 barobarga ko‘paytirildi¹. Bu bosqichda O‘zbekistonning turizm sohasida quyidagi muhim masalalari amalga oshirildi:

davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni;

yangi xorijiy investorlarni jalb qilish;

tashqi bozorlarga chiqishning yangi yo‘llarini izlash, xalqaro ko‘rgazmalarga chiqish (Berlin, London, Madrid, Moskva);

turistik korxonalar va sayohatchilarning manfaatlarini himoyalovchi nodavlat tashkilotlarning vujudga kelishi;

turistik yo‘nalishlarning jozibadorligini ta‘minlash, mahsulotning ekologik talablarini kuchaytirish, yangi hududlarni turistik diqqatga sazovor joylar sifatida ochish;

O‘zbekiston mehmonxonalarini boshqarishda xorijiy menejmentni qo‘llash;

kichik xususiy mehmonxonalar tarmog‘ini kengaytirish;

turizm sohasida mutaxassislarni tayyorlash (o‘rta maxsus hamda oliy ta‘lim bosqichida);

xorijiy tajribalarni o‘rganish;

ilmiy loyihalar tayyorlash;

¹ M.R.Boltaboev, I.S.To‘xlijev, B.Sh.Safarov, S.A.Abduxamidov Turizm: nazariya va amaliyoti Toshkent-2018 402-b

BTT tadqiqot guruhining O‘zbekistonga kelishi va “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunni tayyorlash borasidagi ishlar;

turfirmalarning nodavlat va korporativ tashkilotlar “Ustoz”, “Meros”, “Ekosan” va h.k. bilan aloqalari yo‘lga qo‘yildi.

Turizm sohasidagi islohotlarning uchinchi bosqichida, 1999- yil 15-aprelda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining “2005-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi, shu yilning 20-avgustida esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “Turizm to‘g‘risida” gi Qonun qabul qilindi. Buning asosida turizm sohasidagi bozor munosabatlari uzil-kesil yo‘lga qo‘yildi hamda xalqaro bozorda raqobatbardosh turistik mahsulot yaratila boshlandi, turizm tizimini boshqarishning markazlashtirilishiga chek qo‘yildi. Ko‘pchilik turistik ob‘ektlar o‘zlarini mustaqil ravishda boshqara boshladi, xizmatlar bozorida raqobatlasha olmaydigan korxonalar yopilib, ular o‘rniga samarali ishlovchi yangi xususiy korxonalar tashkil etildi. 2000-yildan boshlab, respublikamiz turizm sohasi yuqori sur‘atlar bilan rivojlana boshladi. Turizm sohasidan olinayotgan daromadlar yiliga 20 va undan ortiq foizlarda o‘sa boshladi. Sharqiy Osiyoda o‘tgan yillarda tarqalgan odatdan tashqari, pnevmoniya (SARS) va parranda grippi kabi kasalliklar O‘zbekiston turizmiga 2001-yil 11-sentabr voqealaridek kuchli ta‘sir ko‘rsata olmadi.

Turizm sohasidagi islohotlarning to‘rtinchi bosqichi 2000- yildan boshlangan bo‘lib, 2017-yilgacha davom etdi. Bu davrda xususiy turistik tashkilotlar assotsiatsiyasiga va tashkil etiladigan boshqa turistik assotsiatsiyalarga asos qo‘yildi (Gid-tarjimonlar assotsiatsiyasi, Mehmonxona egalari assotsiatsiyasi, Transportchilar assotsiatsiyasi) va “ O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasining bir qator vakolatlarini o‘tkazish ustida izlanishlar olib borildi.

Bu turizm xizmatlar bozorida faoliyat yurituvchi korxonalaming yanada tezroq sur‘atlarda rivojlantirishga yordam berdi. Turizm sohasi bo‘yicha 2014-yilda xalqaro anjuman Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) Butunjahon turizm tashkiloti Ijroiya

kengashining 99-sessiyasining aynan Samarqand shahrida bo‘lib o‘tishi ham bejiz emas edi¹.

Bunga barcha asoslar mavjud bo‘lib, hozirgi paytda butun dunyoda “Samarqand Deklaratsiyasi” deb tan olingan hujjatni qabul qilgan Butunjahon turizm tashkilotining Samarqandda bo‘lib o‘tgan kengashida (1994-yil 5-oktabr) shahar bir ovozdan “Ipak yo‘lining yuragi” deb e‘tibor etilgan edi. Samarqand shahri 2014-yilda AQSHning mashhur “The Huffington Post” internet nashri tomonidan e‘lon qilingan reytingga muvofiq, sayyoramizning turistlar borib ko‘rishi lozim bo‘lgan 50 ta eng go‘zal shaharlari qatoridan o‘rin oldi.

E‘tiborlisi shundaki, MDH davlatlari shaharlaridan ushbu ro‘yxatga faqat Samarqand shahri kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qabul qilgan Farmoni tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, iqtisodiyotda birinchi marotaba turizm sohasiga strategik sektor maqomi berildi², natijada O‘zbekistonda turizmning xorijiy hamda ichki turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi turdosh sohalari va tarmoqlarining rivojlanishini ta‘minlashda milliy turizm sohasining yangi beshinchi bosqichi boshlandi.

Farmonda quyidagilar o‘rta muddatli istiqbolda turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi:

turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasini shakllantirish va izchil amalga oshirish;

turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish;

ushbu sohani barcha hududlami va o‘zaro bog‘liq tarmoqlami kompleks ravishda jadal rivojlantirishning yetakchi kuchiga aylanishi lozim bo‘lgan iqtisodiyotni diversifikatsiyalash;

tarkibiy o‘zgartirish va barqaror rivojlanishning qudratli vositasiga aylantirish;

¹ M.R.Boltaboev, I.S.To‘xlijev, B.Sh.Safarov, S.A.Abduxamidov Turizm: nazariya va amaliyoti Toshkent-2018 402-b

² Dunyoda-elliktdan biri // XXI asr. 2016 y

yaratiladigan yalpi ichki mahsulotda, mahalliy budjet daromadlarida turizmning ulushini ko'paytirish;

ish bilan bandlikni ta'minlash, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

turizm industriyasi subyektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga yo'naltirilgan turizm faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini va normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, turizmning rivojlanishidagi barcha to'siq va g'ovlarga barham berish, viza va ro'yxatdan o'tkazish tartib-tamoyillarini, pasport va bojxona nazoratini soddalashtirish, turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish va bozorga xos tarzda tartibga solish mexanizmini maqbullashtirish, turizm sohasida tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish va turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, turizm sohasida statistik hisobga olish tizimini takomillashtirish;

turizm xizmatlarini tashkil etishda, eng avvalo, turistlar joylashtiriladigan joylarda, ovqatlanish punktlarida, respublika hududi bo'ulab harakatlanishda, turizm ob'ektlariga tashriflarni uyushtirishda turistlar va ekskursantlarning hayoti va sog'lig'i, xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini - ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, o'smirlar va yoshlar turizmini, oilaviy turizmni, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish hisobiga turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish, 15 hududlarda yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish, ularni pasportlashtirish, turizm yo'nalishlari va turizm ob'ektlari bo'yicha yagona milliy reestrlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, - turizm faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni, birinchi

navbatda, BMTning Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO), xorijiy mamlakatlarning turizm bo'yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlari - turizm xizmatlari mintaqaviy va jahon bozorlarining faol ishtirokchilari bilan hamkorlikni kengaytirish, O'zbekistonning turizm sohasida tartibga soluvchi universal xalqaro konvensiyalar va bitimlardagi ishtiroki, turizm faoliyati amaliyotiga xalqaro va davlatlararo standartlar va normalarni joriy etish;


Respublikaning barcha mintaqalarida zamonaviy jahon standartlariga, turistlarning ehtiyojlari va talablariga javob beradigan turizm industriyasi ob'ektlarini - mehmonxonalarini va joylashtirishning shu kabi vositalarini, umumiy ovqatlanish ob'ektlarini, transport-logistika tuzilmalarini, axborot markazlarini, madaniyat va sport muassasalarini jadal rivojlantirish, asosiy turizm yo'nalishlari bo'yicha yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini, yo'lbo'yi infratuzilmasini jadal qurish va rekonstruksiya qilish, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investorlarni keng jalb etish;

xalqaro turizm rivojlanishi tendensiyalarini va zamonaviy marketing vositalari qo'llanilishini hisobga olgan holda, raqobatbardosh turizm mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish, ularni ichki va xalqaro turizm bozorlarida targ'ibot qilish bo'yicha strategiyani ishlab chiqish, qulay turizm axborot muhitini tashkil etish va rivojlantirish, keng reklama-axborot faoliyatini amalga oshirish, mamlakat hududlarida turizm axborot markazlari va chet elda turizm vakolatxonalarini ochish, internet tarmog'idan faol foydalanish, har yili Toshkent xalqaro turizm yarmarkasini o'tkazish yo'li bilan turizm sohasida mamlakatimizning ijobiy qiyofasini shakllantirish;

turizm tarmog'i uchun, ayniqsa, menejment va marketing sohasida malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, gidlar (ekskursiya yetakchilari) tayyorlash, turizm faoliyati subyektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

Milliy turizm sohasining yangi beshinchi bosqichi 2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha

Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda turizm sohasini rivojlantirish ustuvor yoʻnalishlaridan biriga kiritilishi bilan boshlandi, Harakatlar strategiyasi turizm sohasini isloh qilishda farmonda belgilangan oʻrta muddatli istiqbolda amalga oshiriladigan masalalarga alohida eʼtibor berishni talab qiladi (1.3.1-rasm).



1.3.1-rasm Harakatlar strategiyasi turizm sohasini isloh qilish¹

Bosqichlarga eʼtibor berilsa, mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq asosiy davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi sifatida qaralmoqda. Turizm sohasining rivoji uchun barcha zaruriy tashkiliy-huquqiy mexanizm vujudga keltirilgan boʻlib, muhim meʼyoriy hujjatlar qabul qilindi,

¹ review.uz/uz/post/razvitie-turizma-v-uzbekistane-obzor-turotrasli-za-2016-2020-gg

jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining turizmga oid qator Farmonlari, respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Adliya vazirligining va boshqa mutasaddi davlat idoralarning yo‘riqnoma, ko‘rsatma va tartiblari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. O‘zbekistonda kelgusida turizmni rivojlantirish vazifalarini samarali amalga oshirish va xorijiy hamda ichki turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi turdosh sohalar va tarmoqlar rivojlanishi uchun vertikal diversifikatsiya asosida milliy turizm xizmat bozorini innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish yo‘li bilan qulay sharoit yaratishda turistik xizmatlar hajmining bashorat ko‘rsatkichlari bir me‘yorda, muntazam o‘shidan dalolat beradi.

Zamonaviy g‘arb iqtisodiyotida turizm murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qaraladi, qaysiki turist turistik industriya jamiyat, turistik siyosat va iqtisodiyot bir butunlik sifatida qaraladi. Bunda iqtisodiy muammolar turizmning ijtimoiy ekologik aspektlari bilan birgalikda tahlil qilinadi. Gap shundaki bugungi kunda hayotiy strategiya va hayot uslublari qoida bo‘yicha bir xil ijtimoiy-siyosiy asoslar ichida shakllanadi, ular shaxsning ijtimoiy tizimidagi muayyan maqomi bilan yuzaga keladi. Ammo shaxs uchun boshqa ijtimoiy guruh vakillarining yashash tarzi ahamiyat kasb eta boshlasa, bu holda ushbu guruhning ahloqiy iste‘mol namunalariga mos keluvchi hayot tarziga o‘zini namoyon etish yo‘li bilan mansubligini ko‘rsatishga tayyor bo‘ladi. Siyosiy va madaniy bilish turizm talablari segmenti kengaymoqda. Boshqa xalq va davlatlarning madaniyatini, san‘tini an‘analarini o‘rganishga intiluvchi sayohatchilarning katta oqimi yevropaga, Osiyoga va yaqin sharqqa intilmoqda. Sayohatchilarning sport sog‘lomlashtirish, davolash va boshqa turdagi turizmlarga siyosiy-madaniy o‘rganish motivlarini kengayishi an‘anasi kuzatilmoqda. Siyosiy-madaniy o‘rganish turizm rivojlanishida xukumat va mahalliy ma‘muriyatning madaniy yodgorliklarini avaylab asrash, ularga keluvchi sayyohlar oqimini boshqarishdagi kuch-g‘ayratlari muhim o‘rin tutadi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosa

Turizm sohasini rivojlantirishning nazariy jihatlari, rivojlanish evolyutsiyasi, hududlarda turizmni rivojlantirish bo'yicha jahon tajribalarini o'rganish hamda O'zbekistonda ziyorat turizmning bosqichma bosqich rivojlanishlari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Tadqiqot yo'nalishlaridan kelib chiqib tadqiqotchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni uch guruhga ajratgan holda "turizm -tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi turli tarmoq va sohalarning turmaxsulot va turistik xizmatlar jamlanmasini taqdim etilishiga ko'maklashuvchi va tashkillashtiruvchi iqtisodiyotning alohida sohasidir" degan mualliflik ta'rifini berish maqsadga muvofiqdeb hisobladik.

Turizm tashriflarining ko'payishi, olinadigan daromad hajmining ortishi bilan tashrif manzillari o'rtasida raqobat kurashining ko'chayib boraverishi tashrif buyuruvchilarni sayohatga chiqishga undovchi motivlar va unga ta'sir etuvchi omillar chuqurroq tadqiq etila boshladi. Kishilarni sayohatga undovchi motivlarga ta'sir etuvchi ko'plab omillar mavjud bo'lib, ularni ma'lum bir ko'rinishda tizimlashtirish, tasniflash zarurati vujudga keldi va shundan kelib chiqib, ularni iqtisodiy va noiqtisodiy millarga jamlash to'g'ri bo'ladi.

Turizmning o'ziga xos evolyutsion rivojlanish yo'lini turli nazariyalar va rivojlanish modellari xususiyatidan kelib chiqqan holda tizimlashtirish, tasniflash sohani kelajakda tadqiq etishni osonlashtiradi.

Diniy ziyoratgohlarni ziyorat qilish uchun tashrif buyurishi mumkin bo'lgan ziyoratgohlarni aniq marshrutlarini ishlab chiqish; ushbu ziyoratgohlar bilan xorijiy sayyohlarni jalb qilish maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari, ular tanlagan strategiyalarning tahlili mamlakatimiz xususan, Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish, turistik resurslaridan unumli foydalanish imkonini yanada oshiradi degan xulosaga keldik.

II BOB Surxondaryoda ziyorat turizm ob‘ektlari va rivojlanish tendensiyalari

2.1-§ Surxondaryoda ziyorat turizm ob‘ektlari va infratuzilmalarining joylashuvi

Ma‘lumki, Surxondaryo viloyatining tabiiy-geografik joylashuvi, jozibador tabiiy-rekreatsiya va tarixiy-madaniy resurslaridan turizm sohasini jadal rivojlantirishda samarali foydalanish hamda sohani jadal rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar, shart-sharoitlar va shu bilan bir qatorda, o‘ziga xos boy tarixi, madaniyati, hadisshunos olimlari, allomalari, madaniy meros ob‘ektlari, qadimiy me‘morchilik, hunarmandchilik va pazandachilik san‘ati bilan ziyorat turizm yo‘nalishida ham yuksak salohiyatga ega voha hisobanadi.

Shuni aytib o‘tish joizki, viloyatning mavjud turizm salohiyatidan unumli foydalanish orqali ichki va xalqaro turizmni jadal rivojlantirish, 2022-2026-yillarga ko‘zda tutilgan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan turizm sohasini jadal rivojlantirish, yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash, turistik xizmatlarini diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish, keng ko‘lamda investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha chora tadbirlar amalga oshirilishi asnosida Surxondaryo viloyati xizmatlari hamda yalpi hududiy mahsuloti tarkibida turizm xizmatlari ulushini keskin oshirish imkoni mavjud.

So‘ngi yillarda viloyatda ichki va kirish turizmini rivojlantirish, strategik tarmoq sifatida boy turistik salohiyatni to‘laqonli baholash, barqaror rivojlanishning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy dastaklarini o‘rganish va amaliyotda samarali foydalanishga asosiy e‘tibor qaratilmoqda.

Bu borada so‘nggi yillarda mahalliy va xorijiy ziyoratchi sayyohlar oqimini shakllantirish va ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, viloyatning ziyorat turizm salohiyatini keng targ‘ib qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratilgan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ziyorat turizmini yanada rivojlantirish va ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon¹ loyihasiga asosan vohamizda ham kerakli chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bulardan Surxondaryo viloyatiga tegishli bo‘lgan ayrimlarini keltirib o‘tsak: Termizdagi Imom At-Termiziy siyrat musobaqasi, “Termiziy ulamolarining islom tamadduni va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi” mavzusida anjumani, Imom At-Termiziyning “Ash Shamoli An-Nabaviya” kitobi va boshqa allomalarning asarlarini xorijiy (ingliz, arab, turk, rus) tillarda sifatli usulda nashr etiladi hamda ziyoratgohlar, temir yo‘l vokzallarida sotuvini yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilgan.

Yetuk Termiziy va boshqa islomshunos ulamolarning hayoti va ijodi, shuningdek, viloyatdagi ziyorat ob‘ektlari to‘g‘risida maqolalarni “Vikipedia” elektron platformalarga joylashtirilish, Imom At-Termiziy hayoti va merosi, xususan “Shamoili An-Nabaviya” asari haqida maxsus ko‘rsatuvlar tashkil etish, shuningdek, viloyatimizning ziyoratgoh va muqaddas qadamjolari, turli dinlar merosini aks ettiruvchi video roliklar tayyorlash va ularni avia, jumladan xorijiy aviakompaniyalar va poezdlar bortlari mediatekasiga kiritish choralari amalga oshirilishi reja qilingan. Viloyat hududida 560 dan ortiq madaniy meros ob‘ektlaridan 95 tasi turizm ob‘ektlari sifatida foydalanib kelinyapti².

Qora tepa buddizm inshooti (Termiz tumani, I-V asrlar), Fayoztepa buddizm inshooti (Termiz tumani, I-IV asrlar), Abu Iso At-Termiziy maqbarasi (Sherobod tumanlari, XII asrlar), Qirqiz saroyi (Termiz tuman, X-XV asrlar), Hakim Termiziy maqbarasi (Termiz tuman, IX-XV asrlar), Sulton Saodat majmuasi (Termiz tuman, XVII asr), Kokildorota honakohi (Termiz tumani, XVI asrlar), Jarqo‘rg‘on minorasi (Jarqo‘rg‘on tumani XII asr), Kampirtepa qal‘asi (Muzrabot tuman, m.a. IV - mil. II asr), Oq Ostonabobo maqbarasi (Uzun tumi, X-XI asrlar), Zarautsoy qoyatosh rasmlari

¹ /lex.uz/ru/docs/-5283956

² Madaniyat va turizm vazirligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi ma’lumotlari

(Sherobod tumanli, mezolit davri) Teshiktosh g'ori (Boysun tuman, Musteri-Neolit Davri) Dalvarzintepa shaharchasi (Sho'rchi tuman, II asr) (2.1.1-ilova).

Ob'ektlar sayyohlarni qabul qilish uchun talabga javob bera olmaydigan darajada ekanligini hisobga olgan holda, ularni qayta rekonstruksiya qilish va sayyohlarni ko'proq vaqt davomida bir joyda ushlab turish maqsadida har bir turistik ob'ektlarning yoniga ixtisoslashtirilgan ovqatlanish shaxobchalari, turistik ko'ngilochar muassalari, sovg'a do'konlari va boshqa qo'shimcha xizmatlarni davlat sherikchilik asosida tadbirkorlar bilan birga shartnoma qilish yaxshi samara beradi. Ushbu ob'ektlarning betakrorligi, jahon madaniy merosi ob'ektlari ro'yxatiga 2030-yilgacha kiritish rejalashtirilayotgan milliy madaniyatimiz, tariximizning durdonalaridan ekanligini hisobga olsak, ushbu ob'ektlardan turizm uchun samarali foydalanish lozim.

Surxondaryo viloyati yurtimizning eng janubida, markaziy hududlardan uzoqligi, geografik joyashuviga ko'ra tog'li hududlar bilan o'ranganligi, sanoatlashuv darajasi, investitsiya salohiyati pastligi, qishloq xo'jaligi asosiy daromad manbai sababli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Vohamizda turizmning ko'plab turlarini rivojlantirish imkonini beraydigan tog'li hududlardagi rekreatsiya resurslari, tarixiy-madaniy hamda arxeologik resurslari, jahon nomoddiy merosi ham mavjud bo'lib asosan turizm infratuzilmasining asosiy qismi Termiz shahrida joylashgan bo'lib, tog' va tog' oldi zonalarida turizm infratuzimlasi ob'ektlarini jadal suratlarda tashkil etish orqali xizmat ko'rsatish hajmini oshirish imkonini beradi.

Termiz shahri va Termiz tumanlari hududida Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan buddaviylik, islom diniga e'tiqod qiluvchi xorijiy turistlarni jalb etadigan islom va buddaviylik yodgorliklari ziyorat turizmini rivojlantirish, yangi turizm xizmatlarini yo'lga qo'yish imkoniyatini beradi. Viloyatda ziyorat turizm barqaror rivojlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy yo'llarini ochib beruvchi ayrim ko'rsatkichlar haqida aytib o'tilgan bo'lsada, 2010 -yildan 2021yil bo'lgan davrda viloyatda turizm sohasi korxonalarini faoliyati o'sish trendiga ega bo'lib, ijtimoiy-

iqtisodiy oshib borganligini ko'rsatayotgan bo'lsada, uning yalpi hududiy mahsulotda ulushi kam. Bu esa turizm sohasiga yanada ko'proq etibor berishimiz kerakligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Mustaqillik yillarida Termiz chiroyini yanada ochdi, shahar ko'chalari boshqatdan qurilib, ravon va keng ko'chalarga aylantirildi, istirohat bog'lari, sharqona usuldagi muhtasham va obod bozorlar, zamonaviy ma'muriy binolar, o'yingohlar, teatr va kinoteatrlar, ilm-fan maskanlari barpo etildi.

Qisqacha qilib aytganda shaharning qiyofasi tanib bo'lmas darajada o'zgardiki, bu o'z navbatida har bir termizlik qalbida faxrlanish va quvonch hissini uyg'otmoqda. 1999-yil noyabr oyida YUNESCO Bosh konfrensiyasining Parijda bo'lgan 30-majlisida Markaziy Osiyoning qadim shaharlaridan biri Termiz shahrining 2500-yillik yubileyini 2001-yilda xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qilindi. Mazkur qaror munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1999-yilning 27-dekabrida "Termiz shahrining 2500-yillik yubileyini 2001-yilda o'tkazish va unga tayyorgarlik ko'rish to'g'irisida" maxsus qaror qabul qilindi¹. Sherobod tumanida "O'rinbuloq" bulog'i buyrakdagi toshlarni parchalash hamda "Zarabog" qishlog'idagi "Koriz" suvi ham buyrakdagi toshlarni parchalash va ovqat hazm qilish xususiyatlariga ega bo'lib, sog'lomlashtirish va davolash xizmatlarini tashkil etish mumkin. Sherobod tumanidagi "Kampirtepa" mahallasining "Machildi" qishlog'ida 5 ta xo'jalik mavjud bo'lib, bu yerda bog' va qalin o'rmonlarning mavjudligi ekoturizmni rivojlantirish imkonini beradi.

Termiz tumani "Uchqizil" suv ombori Termiz shahridan 20km uzoqlikda, O'zbekistonning eng issiq hududida joylashgan. Bu yerda ko'ngilochar va zamonaviy dam olish maskani barpo etilgan bo'lib bahorning aprel oylaridan to sentyabr oylariga qadar mahalliy va xorijiy sayyohlar tashrif buyurishlari va sanatoriyada dam olishlari mumkin.

¹ Turizm geografiyasi, o'quv uslubiy majmua, H.S. Mirzaaxmedov-2021-193, b

Qiziriq tumanida “Etim qum” massivida qum sahrosi mavjud bo‘lib, revmotizmni davolash uchun sog‘lomlashtirish maskani qilishga imkoniyat mavjud. Sariosiyo tumanidagi “Sangardak” ziyoratgohida ziyorat va ekoturizmni rivojlantirish uchun mehmonxona va dam olish maskanlari qurish imkoni bor va bu hozirgi kunda amalga oshirilmoqda.

Viloyatning Boysun, Sariosiyo, Oltinsoy, Uzun va Sherobod tumanlari “Hisor”, “Bobotog” va “Ko‘htang” tog‘ tizmalarida joylashganligi sababli bu yerda ekoturizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Surxondaryo – xorijiy va mahalliy turizmni keng yo‘lga qo‘yish uchun yirik salohiyatga ega hudud.

Vohada 374 ta madaniy meros yodgorliklari va tabiiy meros ob‘ekti mavjud. Ziyorat, buddizm, agro, sanoat, ekologik va sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat bor. Hududning madaniy-ma‘rifiy va ko‘ngilochar, gastronomik turizmi mashrutlariga ham dunyo ahlining qiziqishi yuqori. Shunga mos ravishda vohaning rang-barang turizm yo‘nalishi belgilab olingan.

Al Hakim At-Termiziy maqbarasi. Termiz tumanidagi, Al-Hakim At-Termiziy ziyoratgohi, Kokildor ota, Qirqqiz, Sulton Saodat yodgorliklari, Chorgumbaz masjidi, Boysun tumanidagi Hazrati Eshonbobo ziyoratgohi va shifobaxsh suvi, Hazrati Sulton Valiy, Jarqo‘rg‘on tumanidagi Xo‘ja Samandar Termiziy ziyoratgohlari, Oltinsoy tumanidagi Xo‘jaipok ziyoratgohi va shifobaxsh suvi, Uzun tumanidagi Oq ostona bobo maqbarasi, Sherobod tumanidagi Iso Termiziy ziyoratgohi atrofida kichik uy mehmonxonalarini qurilishi orqali ziyorat turizmini yanada rivojlantirish mumkin.

Xo‘jaikon tuz koni Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi kon, 1942-yilda ishga tushirilgan. Kon yotiq sinklinal burmada joylashgan, bunda tuz qatlamlari teskari qatlamlangan bo‘lib, oq tuzlar yuqori, qizil tuzlar pastda joylashgan. Qizil tuz qatlamlaridakaliy tuzlarining 6 qavati ajralib turadi. Tuzlarning razvedka qilingan zaxirasi 46mln.t, yiliga 150ming t.dan karyerlardan qazib olinmoqda. Xo‘jaikon tabiiy tuz g‘orida sog‘lomlashtirish maskani barpo etilgan bo‘lib, bu yerga insonlar allergik,

nafas yo‘li kasalliklari va bir qancha dardlarga davo topish maqsadida tashrif buyuradilar (2.1.2-ilova).

Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasi qarori PQ-332-son, 27.05.2020yil qabul qilindi. Unda Surxondaryo viloyatining Termiz tumanidagi “Qoratepa” va “Fayoztepa” hamda Sho‘rchi tumanidagi “Dalvarzintepa” yodgorligini muhofaza qilish, hududini obodonlashtirish, infratuzilmasini takomillashtirish va sayyohlar tashrif buyuradigan maskanga aylantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi¹.

Surxondaryo viloyati uzoq vaqt sir bo‘lib keldi. XIX asrning oxirgi choragigacha Hisor tizmasining janubida joylashgan tog‘lar deyarli o‘rganilmagan edi. 1875-yilda “Hisor ekspeditsiyasi” davomida Surxondaryo viloyatining yangi xususiyatlari kashf etila boshlandi. Ma’lum bo‘lishicha, Surxon vohasi tekislikning pastida joylashgan bo‘lib, sharqdan, shimoldan va g‘arbdan tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan. Janubdan vohani O‘rta Osiyodagi eng sersuv daryo – Amudaryo yuvib turadi. Geografik joylashuvi hamda orografik xususiyatlari mintaqaning o‘ziga xos iqlimini shakllantirgan. Hisor tizmasining g‘arbiy cho‘qqilari vodiyni sovuq havo massalarining kirib kelishidan himoya qiladi, janubiy tomoni ochiqligi esa issiq tropik havoning kirib borishi uchun zamin yaratadi.

Surxondaryoning iqlimi va geografiyasi tarixiy obidalar, qadimiy shaharlar xarobalari, tabiat yodgorliklari va boshqa diqqatga sazovor joylarni deyarli asl holicha saqlab qolish imkonini berdi. Surxondaryo qiziqarli sayyohlik maskani bo‘lib, bu yerda O‘zbekistonga xos bo‘lmagan arxitekturani, qadimiy davrning rang-barang binolarini ko‘rib, ushbu hududning noyob, o‘ziga xos madaniyati bilan tanishish mumkin.

Ma’lumki, Iskandar Zulqarnayn, Chingizxon, Ibn Battuta, Rui Gonsales de Klavixo kabi tarixiy shaxslar Surxondaryodan o‘tganlar. Surxondaryo qadimdan

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-4832412>

ko'hna So'g'diyona shaharlarini Baqtriya va Hindiston bilan bog'lab turgan. Bu joy har doim sayohatchilarni, tadqiqotchilarni va sarguzasht ishqibozlarini o'ziga jalb qilgan. Biz Surxondaryo viloyatining ko'rishingiz kerak bo'lgan eng diqqatga sazovor joylari haqida keltirob o'tamiz.

Qirqqiz qal'asi — Termiz tumanida joylashgan, IX-X asrlarda qurilgan me'moriy yodgorlik bo'lib, hozirgi vaqtda yodgorlikning vayronalari saqlanib qolgan bo'lib, ular ming yilliklardan keyin ham qadimiy inshootning avvalgi ulug'vorligini ko'rsatib turibdi. Tadqiqotchilar bu tuzilma o'tmishda qanday vazifani bajarganligi haqida turli farazlarni ilgari suradilar. Balki bu inshoot qadimda shahar chetidagi zodagonlar saroyi, ayollar madrasasi, xonaqoh yoki karvonsaroy bo'lgandir. Ammo ko'pchilik tarixchilar bu bino Ko'hna Termizning mudofaa qal'asi bo'lib xizmat qilgan, degan fikrga qo'shilishadi (2.1.3- ilova).

Kokildor ota xonaqohi Termiz shahrida joylashgan bo'lib, XI asr o'rtalarida qurilgan. Bu bino musulmon olamida hurmatga sazovor bo'lgan muqaddas qadamjodir. Xonaqoh o'zining g'ayrioddiy loyihasi va me'morchiligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotchilarning fikricha, bino XV asrda qayta qurilgan, ya'ni old tomondagi ochiq devorga ulug'vor ayvon qo'shilgan (2.1.4- ilova).

Sulton Saodat - Termiz sayidlari qabri joylashgan maqbaralar majmuasi. IX asrda Termiz sayidlari sulolasi shakllanib, ular davlat rivojiga katta hissa qo'shganlar. Bu mintaqaning ko'plab aholisi o'zlarining kelib chiqishini qadimgi sulola bilan bog'lashadi. Asosiy maqbaralar majmuasi XII asrda, qolganlari XV-XVII asrlarda yonma-yon qurilgan. Ular uzun hovlining ikki tomonida joylashgan bo'lib, tomli va gumbazli to'rtta zaldan iborat (2.1.5-ilova).

Al-Hakim at-Termiziy majmuasi noyob me'moriy yodgorlik va musulmonlarning muqaddas ziyoratgohi hisoblanadi. U Eski Termizning chekkasida joylashgan. Maqbarada buyuk islom arbobi Abu Abdulloh ibn Hasan ibn Bashir al-Hakim at-Termiziy dafn etilgan bo'lib, bu zot xalq orasida hurmat bilan "Termiz otasi" deb atalgan. At-Termiziy majmuasi hududida yana bir qancha qiziqarli, diqqatga

sazovor joylar mavjud. Bular chillaxonalar, ya'ni miloddan avvalgi V-X asrlarga oid qadimiy g'or inshootlari, qadimiy Tarmita shahri (Eski Termiz) xarobalari va Termiz shahri muzeyi.

Miloddan avvalgi I asrdan milodiy III asrgacha bo'lgan davrga oid Fayoztepa yodgorligi ibodatxonalar majmuasi bo'lib, Eski Termiz hududida, Amudaryo sohillari va qadimgi karvon yo'li oralig'ida joylashgan. Bir vaqtlar bu yerda uchta katta bino bor edi: ma'bad, ibodatxona va yordamchi xonalari bo'lgan hovli. Majmua bugungi kungacha o'zining ulug'vorligi va g'ayrioddiy shakli bilan hayratda qoldiradi. (2.1.6-ilova).

Qoratepa budda g'or ibodatxonalari majmuasi Qoratepa — Eski Termizning shimoli-sharqiy qismida joylashgan budda ibodatxonalari majmuasi. Yodgorlik 3ta tabiiy tizma ustida qurilgan. Umumiy maydoni 8 gektardan oshadi. Qoratepada birinchi buddaviylik ibodatxonalari milodiy I asr boshlarida paydo bo'la boshlagan. Ma'bad majmuasining gullab-yashnagan davri eramizning II-III asrlariga to'g'ri keladi.(2.1.7-ilova)

Kampirtepa - Termiz shahridan 30 km uzoqlikda, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan qadimiy shahar. 2018-yilda arxeologlar Iskandar Zulqarnaynning qarorgohi bir paytlar shu yerda – Oks (Amudaryoning boshqa nomi) bo'yidagi qadimiy Iskandariyada joylashganligini isbotladilar. Arxeologik qazishmalar davomida buyuk sarkarda bu yerga kelgan davrga oid madaniy qatlamlar o'rganilib, qimmatbaho buyumlar topildi (2.1-8-ilova).

Surxondaryo viloyatini tarixiy-madaniy resurslari, qadimiy tarixining o'ziga xosligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadigan quyidagi xususiyatlar mavjud: o'rta va yuqori poleolit, must'e davrlarida (miloddan avvalgi 100-60 ming yillar)

Teshiktosh, Machay g'orlarida ilk ibtidoiy odamlar yashagan manzilgohlar mavjudligi miloddan avvalgi III ming yillik boshlarida Jez davriga asos solgan hudud bo'lib, Sopollitepa, Mullali, Jarqo'ton, Ko'zali davri manbalariga asoslangan ilk dehqonchilik markazlari ushbu hududda vujudga kelganligi;

- Surxon davlat qo‘riqxonasi hududida joylashgan Zarautsoydagi qoyatoshlarda tasvirlangan 200 dan ortiq qadimgi ajdodlarimizning yashash tarzi, ov jarayonlari tasvirlangan rasmlar (qadimgi petrogliflar, eramizdan avvalgi 20-10 ming yil ilgari) kishilarni hozirgacha hayratga solib kelayotganligi;

- dastlabki davlatchilik birlashmalari Sopolli, Kuchuktepa, Tallashqon, Jondavlattepa, Qiziltepa, Hayitobodtepa, G‘ozimulla, Bandixontepa kabi istehkomli qo‘rg‘onlarga miloddan avvalgi I ming yilliklarda asos solinganligi;

- miloddan avvalgi XVIII-XI asrlarga oid Jarqo‘ton arxeologik yodgorligida topilgan shahar, qabila, urug‘ oqsoqollariga taalluqli muhr va tamg‘alar mamlakatimizdagi ilk davlatchilikka asos solingan hudud hisoblanishi¹;

- Jarqo‘tondagi ashyoviy dalillar asosida ilk insoniyatning tabiatni asrash, ekologiyani asrash suv, olov, tuproq, havoni muqaddas saqlash g‘oyalari ilgari surilgan ma‘naviyati rivojlangan hudud bo‘lganligi;

otashparastlik, buddizm kabi dinlarning shakllanishiga va taraqqiy etishiga ulkan xissa qo‘shgan hudud ekanligi²;

- xalq og‘zaki ijodining buyuk afsonaviy bahodirlari To‘maris, Katan, Avestan, Alpomishlar tug‘ilgan yurt hisoblanishi;

-Kushon davri bilan bog‘liq I-II asr manbalarida Boysun qal‘alar davlati degan nom bilan mashhur bo‘lganligi³;

- Kushon imperiyasining ilk poytaxti bo‘lgan Dalvarzintepa, asosiy iqtisodiy va diniy markazlari bo‘lgan Oks Aleksandriyasi deb nomlangan Kampirtepa qal‘asi, Qoratepa, Fayoztepa kabi yodgorliklari joylashgan hudud ekanligi;

- qur‘on va hadis ilmlari, diniy va dunyoviy ilmlarni o‘rganish bo‘yicha islom olamida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan hadisshunoslar, xakim va ulamolar bo‘lgan Termiziyalar yashagan hudud ekanligi¹;

¹ Tursunov S.N. Surxon vohasining moddiy va ma‘naviy tarixi va taraqqiyoti. // “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot: transformatsion jarayonlar” nomli respublika ilmiy anjumani ilmiy maqolalar to‘plami. – Termiz: “Poligraf-Nashr”, 2013. - B.6

² Xashimov M.A. Religioznye pamyatniki Sentralnoy Azii. – Almaty: SAGA, 2001. – S. 8–22.

³ Xayrullayev M. Buyuk ipak yo‘lidagi Boysun manzilgohlari. // “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot: transformatsion jarayonlar” nomli respublika ilmiy anjumani ilmiy maqolalar to‘plami. Termiz: “Poligraf-Nashr”, 2013. -B. 68

- betakror jahon nomoddiy me'rosi obyektini hisoblangan Boysun folklori, baxshichilik maktabi shakllangan hudud ekanligi.

- Buyuk Ipak yo'li markazida joylashgan hududlardan biri sifatida, arxeologlar va tarixchilar tomonidan kashf etilgan bu yerdagi qadimiy madaniyatni Xindiston, Xitoy, Eron, Misr tamaddunlari bilan taqqoslash imkoniyati mavjud. Qadimda mamlakatimizning janubi Baqtriya, Yunon-Baqtriya va Kushon davlatlari tarkibida bo'lgan va jahon madaniy merosida sezilarli iz qoldirgan.

2.2.§ Ziyorat turizm rivojlanishida zamonaviy xizmatlarni tashkil qilish

Turizm sohasi jahon bo'ylab tez rivojlanib, iqtisodiy o'sishga o'tkazishda muhim ahamiyatga ega sohalaridan biridir. Bugungi kunda turizm, faqat turistlarni qiziqtirgan joylarni kashf qilish maqsadidan o'tib, modern sayohat xizmatlarini amalga oshirishni talab qiladi.

Ushbu ikkinchi bobning ikkinchi qismida, turizm rivojlanishida modern xizmatlarni amalga oshirishning ahamiyati va Surxondaryodagi bu tendentsiyalarga e'tibor qaratiladi. Sayohat qilish niyatida bo'lgan turistlar, turli modern vositalardan foydalanib kelmoqdalar. Internet orqali sayohat rezervatsiyalari qilish, parvozlar va joylashish joylari haqida ma'lumot olish, hozirgi kunda turistlar kundalik hayotlarining bir qismi bo'lgan jarayonlar holiga kelgan.

O'zbekistondagi mehmonxonalardan, sayohat agentliklardan va havo yo'llari kompaniyalaridan foydalanib, foydalanuvchiga qulaylik tashlash maqsadida ishlab chiqilgan veb-saytlar va mobil dasturlar orqali rezervatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini berishadi. Turizmning mamlakat uchun yuqori, serdaromad soha ekanligi hammamizga ma'lum.

Bugungi kunda turizm iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda, turizmning rivojlanishi orqali aholining ish bilan ta'minlanishi, ularning yashash sharoiti yanada serdaromad bo'lishiga olib kelishi mamlakat iqtisodiyotini har

¹ Choriyev Z., Annayev T., Murtazoyev B., Annayev J. Al Hakim at-Termiziy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. –B. 15.

tomonlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Fikrimiz tasdig'i sifatida aynan turizm sohasi rivojlangan xorij tajribasida ham ko'rishimiz mumkin.

Turizm industriasini rivojlanishida menejmentning o'rni beqiyosdir. Yurtimizning turizm sohasidagi salohiyati nihoyatda ulkandir. Aynan shuning uchun ham mazkur sohaga talaba yoshlarni professional tayorlash, menejmentning turizm sohasidagi o'ziga xos xususiyatlarini, boshqarish metodlarini o'zlashtirish to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, - "Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir". Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros ob'ektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish zonalarini imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim¹.

Turizm sohasida modern xizmatlar eng birinchilardan biri, innovatsion tashriflar tajribasidir. Hozirgina boshqarish asosiy me'yori bo'lgan mehmonxonalarning tashqi hujjatlari orqali da'vo, villa yoki maxsus dizaynga ega joylar ijaraga olinishi mumkin. Bu, turistlarga asl bo'lgan va mahalliy tajriba taklif etishning yanada hamoniy yo'lini ko'rsatib beradi, shuningdek, keng maydon, maxfiylik va ozodlik imkoniyati beradi. O'zbekistondagi turistik hududlarda, qayta tiklanib, mehmonxonalarga aylanib, joylashish birliklariga aylanib qolgan o'zbek uy-jonlarining misolini ham bor.

¹ <https://kun.uz/>

Bugungi kunda turizm jahondagi uchta yetakchi sohalar qatoriga kiritilmoqda. Tez sur'atlarda rivojlanmoqda va uning muhim ijtimoiy hamda iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi quyidagi omilarga ta'siri bilan belgilanadi;

-mahalliy daromadni o'stiradi;

-yangi ish o'rinlarini yaratadi;

-turistik xizmatlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'barcha sohalarni rivojlantiradi;

-sayyohlik markazlarida ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantiradi;

-xalq hunarmandchilik markazlari faoliyatining rivojlanishini tezlashtiradi;

-mahalliy aholi yashash darajasining o'sishini ta'minlaydi;

-valyuta tushumlari miqdorining o'sishiga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunida ayrim moddalarda turistik xizmatlar bilan bog'liq tushunchalarning ta'rifi berilgan. Jumladan, Qonunning 3-moddasida turistik xizmatlar tushunchasi haqida: "turistik xizmatlar turistik faoliyat sub'ektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot-reklama xizmatlari ko'rsatish borasidagi, shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlar", – deb ta'riflanadi.

Turistik xizmatlar majmui transport xizmati ko'rsatishni, yashash, ovqatlantirish, ekskursiya xizmati ko'rsatish, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish va boshqa xizmatlarni o'z ichiga oladi", – deb belgilangan. Qonunning 21-moddasi: "Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish", – deb nomlanib, unda quyidagi jummalarni o'qiymiz: "Turistik xizmatlar majburiy sertifikatlashtirilishi lozim. Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish va sertifikat berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Turistik faoliyat sub'ektining turistik xizmatlarni majburiy sertifikatlashtirishdan bosh tortishi, turistik xizmatlarni sertifikatlashtirishning natijasi salbiy bo'lishi, shuningdek, sertifikatning amal qilishini bekor qilish turistik faoliyatni

amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib qo‘yishiga, yoki litsenziyadan mahrum qilishga sabab bo‘ladi”.

Qonunning 3-moddasida: “Turistik vaucher», – deb nomlanib, unda: “Turistik vaucher – turistning yoki turistlar guruhining tur tarkibiga kiruvchi turistik xizmatlarga bo‘lgan huquqini belgilovchi va bunday xizmatlar ko‘rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat”, deb qaraladi¹.

Bizning nazarimizda, turistik xizmatlar sayohat davomida turistning barcha ehtiyojlarini qondirishga, ta‘minlashga qaratilgan va xizmat ko‘rsatish sohasidagi aniq maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar to‘plami bo‘lib, ular turizm maqsadlariga, turiga va turistik xizmatning qanday yo‘naltirilganligiga to‘la javob berishi kerak.

Turistlar, sayohat qilgan joylarida modern texnologiyadan foydalanib, yo‘nalishni ko‘rsatish va ma‘lumot olish bilan shug‘ullanishadi. Mobil dasturlar va raqamli ko‘rsatuv xizmatlari turistlarga muzey va tarixiy joylardagi ma‘lumotlarni taqdim etish, yo‘nalishni aniqlash, turistik joylarda yo‘l tariflarini bilish va boshqa ma‘lumotlarni olish imkoniyatini beradi. Shuningdek, sayohat turlari va ekskursiyalar haqida qo‘llanmalar, audio ko‘rsatuvlar va raqamli sayohatlar orqali turistlarga qo‘lyozma tarzida qo‘llanma beriladi. Turistik xizmatlar – turist va ekskursant ehtiyojlarini qondirish va ta‘minlashga qaratilgan, xizmat sohasidagi bir maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar to‘plami bo‘lib, ular turizm maqsadlariga, harakteriga va turistik xizmatning qanday yo‘naltirilganligiga javob berishi hamda umuminsoniy tamoyillarga qarshi bo‘lmasligi kerak. Davlat standarti ta‘rifiga ko‘ra, turistik xizmatlar – turistlarning ehtiyojlarini qondirish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi turizm tashkilotlari faoliyatining mahsulidir. Umuman xizmatlar – bu ko‘zga ko‘rinmas tovarning o‘ziga xos turidir. Xizmat bevosita iste‘mol jarayonida yuzaga keladi va alohida holda bo‘lmaydi, bu xizmatning moddiy tovarga nisbatan asosiy farqidir.


¹ <https://lex.uz/docs/-4428097>

Bundan tashqari, tovar iste'molchiga olib kelib beriladi, turistik xizmat esa iste'molchi bevosita xizmatning amalga oshiriladigan joyiga olib boriladi. Shuning uchun ham turistik xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish moddiy tovarlarni sotishga aloqador bo'lgan qonunlar asosida emas, balki boshqa qonunlar majmui bilan boshqariladi.

Surxondaryoda turizm rivojlanishi uchun marketing va tashqi iqtisodiyot faoliyatining yanada modern usullari ham muhimdir. Turizmga qiziquvchanlarga Surxondaryoning tarixiy va madaniy boyliklarini, tabiat yetakchiliklarini va turistik faoliyatlarini taqdim etish uchun ijtimoiy tarmoqlar, raqamli reklama vositalari va kontent marketingi keng foydalaniladi. Bunda, turizm talablariga mos xizmatlar taqdim etish maqsadida hedeflangan auditoriyalarga mos xabarlar jo'natish orqali tartibga solish mumkin.

O'zbekistonda turizm sohasida modern xizmatlarni amalga oshirish, turist tajribasini yaxshilash va mamlakatning turizm potentsialini oshirishga ko'mak qiladigan muhim asosiy faktorlardan biridir. Modern sayohat rejalashtirish vositalari, innovatsion tashriflar tajribasi, raqamli ko'rsatuv va navigatsiya, marketing va tashqi iqtisodiyot faoliyati kabi unsurlar, turistlarga O'zbekistonni kashf qilishlari davomida qulaylik, yetkazib beruvchi va yoqimli tajriba yaratish imkonini beradi. O'zbekiston turizmi, modern xizmatlarni amalga oshirish orqali turistlarning diqqatini jalb qilib, rivojlanishni davom ettirishga qodir bo'ladi (2.2.1-rasm).

Ammo individual turist hech qanday dastur turpaketsiz sayohat qilganda, uning asosiy va qo'shimcha turistik xizmatlar to'lovi bir xil ko'rinishda amalga oshiriladi. Yuqoridagi farqlardan kelib chiqqan holda, qo'shimcha turistik xizmatlar deganda turpaketda nazarda tutilmagan, turist o'zining qo'shimcha to'lovi asosida foydalanadigan xizmatlar tushuniladi. Butun jahon turizm tashkiloti qo'shimcha turistik xizmatlarning 400 xil turini keltirib o'tgan.



2.2.1-rasm. Turistik xizmatlarda asosiyva qo'shimcha xizmatning % da taqsimlanishi¹

Qo'shimcha turistik xizmatlarning ahamiyati shundaki, unda turist yuzaga kelgan ehtiyojlarini to'laqonli qondiradi, ma'lum bir vazifalarni bajarishda o'zini urintirmaydi masalan: mehmonxonada yashayotganida kiyimini tozalash yoki dazmollash uchun mehmonxona xodimlariga murojaat qiladi. Turist qo'shimcha turistik xizmatlar tufayli to'la dam olishga erishadi. Natijada o'z sayohatidan ko'ngli to'ladi. Qo'shimcha turistik xizmatlardan turist ikki xil vaziyatda foydalanadi; turpaketning tanaffus qismida yoki turist bo'sh qolgan vaqtda foydalanadigan xizmatlar masalan: kechqurun Registon maydonida namoyish etiladigan ovozli va nurli panoramaning tomoshasi; asosiy xizmatlar ko'rsatilishi davomida yoki turist ehtiyojidan kelib chiqqan holda foydalanadigan xizmatlar masalan: qo'shimcha gid xizmati.

Turistga birinchi vaziyatdagi qo'shimcha turistik xizmatlarni ko'rsatish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak: turistlar qiziqishlarini inobatga olib, iloji boricha turistlarga faqat yaxshi kayfiyat bag'ishlaydigan qo'shimcha xizmatlar taqdim etish o'rinli hisoblanadi.

Shu o'rinda bu xizmatlar turistga ijobiy taassurot qoldira olishi kerak va bularga bir qancha misollar ham keltirib o'tsak;

¹ <https://www.yandex.ru/turistik%20xizmatlar>

o‘zbek milliy to‘ylariga va oilalarga olib borish, turistni milliy konsert, festivallarga taklif etish;

Respublikada turistlarga xizmat qiladigan milliy ansambl guruhlarini tashkil etish;

turist uchun yangilik bo‘lgan va bunday vaziyatga oldin duch kelmagan qo‘shimcha turistik xizmatlarni ko‘rsatish; misol uchun Surxondaryoda bir –biriga masofa jihatidan yaqin joylashgan yodgorliklarga sayohat qilishda turistlarni tuya, ot-aravalarda olib borish chuqur taassurot qoldiruvchi xizmatlardir. Buning uchun shu yodgorliklar joylashgan hududda piyoda turistik yo‘laklar tashkil etib, turistik-tomosha hududiga aylantirish kerak;

turistlarni milliy urf – odatlar va an‘analar bilan tanishtirish orqali milliy hunarmandchilik va kasanachilik jarayonlarida bevosita qatnashishini tashkil etish;

yoki o‘zbek milliy taomlarining pishirilish jarayonini tomosha qilish kabi xizmatlar ko‘rsatish. Buning uchun mamlakatimizda hunarmandchilik, kasanachilik va milliy oshxonalarini turizm sohasiga jalb qilish va bu sohalarni rivojlantirish uchun mahalliy tadbirkorlarga ko‘proq qo‘shimcha imkoniyatlar yaratib berish kerak.

Turistga ikkinchi vaziyatdagi qo‘shimcha turistik xizmatlarni ko‘rsatish uchun quyidagilarga e‘tibor berish kerak: mehmonxonalaridagi qo‘shimcha turistik xizmatlarni rivojlantirish; bu xizmatlarga: nomerga taom yoki mehmon buyurtmalarini yetkazib berish xizmati, kiyim tozalash va dazmollash xizmati, seyf xizmati, telefon, internet, pochta xizmatlari, trenajor zali xizmati, basseyn ochiq yoki yopiq, massaj, sauna, sartarosh xizmati, texnikani ta‘mirlash xizmati, valyuta ayriboshlash xizmati, ijara xizmati va boshqalar; ovqatlanish korxonalarida qo‘shimcha turistik xizmatlar maxsus turist buyurtmasi va tanloviga asosan ko‘rsatiladigan xizmatlardir.

Qo‘shimcha turistik xizmatlardan turist ketma-ket ravishda ham foydalanishi mumkin. Ya‘ni, turist bo‘sh vaqtida shahardan tashqariga tog‘li manzaralarni ko‘rish uchun borganda u valyuta almashtirish xizmati, avtomobil ijara xizmati, qo‘shimcha ovqatlanish xizmati shahardan tashqaridadan ketma – ket foydalanadi. Xulosa qilib

aytganda, qo‘shimcha turistik xizmatlar nafaqat tashkil qilinishi va taklif qilinishi, balki sifatli va foydali ravishda ko‘rsatilishi kerak bo‘ladi.

Butun Jahon Turizm Tashkilotiga ko‘ra har bir turist, turist bo‘lishi uchun tashrif buyurgan joyida kamida bir kecha bo‘lishi kerak. Bu esa turistik joyda ma‘lum bir joylashtirish xizmatini tashkillashtiradi. Bu joylashtirish turizm sohasida muhim rol o‘ynaydi, va turistik yo‘nalishda bu e‘tiborsiz qoldirilishi mumkin emas. Bu umumiylikning maqsadi shundan iboratki, sizga mehmonxona faoliyatining turlarini va uni turizm industriyasidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Umumiylikning yana bir maqsadi shuki, u turistik joylardagi yordamchi xizmatlarning ahamiyatini ilgari surmoqda. Mehmonxona turizmning asosiy tarkibiy qismlaridan biri va turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda ko‘proq noan‘anaviy va norasmiy mehmonxona turlariga talab ko‘paydi. Mehmonxona sohasida ko‘p o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi. Xususan joylashtirishning yangi turlari, asosan, shaharlardan tashqari joylar, kempinglar, uy-vagonlari va sayyohlik uylari juda mashhur bo‘lib ketmoqda. Odatda, ko‘p sonli sayyohlar oddiy joylarga tashrif buyuradilar, chunki birinchi klass mehmonxonalar o‘zlarining ajoyib xizmat ko‘rsatishlari mavjuddir. Bugungi kunda, Shveysariya, Gollandiya, Avstriya va Niderlandiya yaxshi milliy oshxonasi, qulaylik va tozalik uchun obro‘ga sazovordir.

Hozirgi paytlarda, odamlarning dam olishi o‘zgardi. Ba‘zilari o‘z dam olish vaqtlarini oilasi va do‘stlari bilan o‘tkazayotgan paytda, qaysidir turist dunyo bo‘ylab sayohat uyushtiradi. Shu sababli, butun dunyo bo‘ylab turizm sanoati o‘z navbatida misli ko‘rilmagan darajada o‘smoqdaki, qaysiki o‘z navbatida servis xizmatlarini va mehmonxona faoliyatini rivojlanishiga olib kelyapti.

Qulay mehmonxonalar va joylashtirish maskanlari turistik makonni mashhur bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Agar o‘z uyidan uzoqda bo‘lgan turist biron turistik makonda o‘zini o‘z uyidagidek his qilsa, unda u joyga yana keladi. Aksincha, agarda u yerda yetarlicha xizmat ko‘rsatilmasa yoki turist u yerdagi sharoitdan qoniqmasa, u

yerga qaytib bormaydi. Shu tufayli mehmonxonalar turistlarga maksimal qulayliklar bilan taʼminlashga va xizmat koʻrsatishga harakat qiladilar.

Turistlarga yanada qulay xizmat koʻrsatish muhimdir shu sababli, turistik mahsulotlar, turistik mahsulot turizm maqsadlari va jarayonida turistning ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli boʻlgan, barcha turistik xizmatlar, ishlar, tovarlar va taʼminot vositalari hamda turpaketga kiritilgan boshqa turistik xizmatlar majmuidan iborat.

Turistik mahsulot turpaket xizmatlar harakatining 24 soatdan ortiq vaqtiga ega va yoki tunab qolish, joylashtirish va joydan-joyga koʻchib oʻtish yuk tashishni oʻz ichiga oladi. Turistik mahsulot barcha koʻrsatilgan xizmatlar va barcha harajatlarni oʻz ichiga olgan umumiy narx boʻyicha taklif etiladi, uning isteʼmol xususiyatlari esa shartnoma shartlari asosida amalga oshiriladi. Turist turistik mahsulotlar, turistik xizmatlar, ishlar va tovarlar isteʼmolchisidir. Turistik mahsulotlar-turistik asosiy xizmatlardan bronlashtirish, transfert, joylashtirish, ovqatlantirish, ekskursiyalar, qoʻshimcha xizmatlar turistik-ishlardan foto xizmati, sugʻurta, axborot, moliya, bank xizmati va turistik tovarlardan esdalik sovgʻalar, xilma-xil tur tovarlari, isteʼmol tovarlari- parfyumeriya, tamaki, spirtli ichimliklar, maishiy texnika, kiyim-kechak iboratdir (2.2.2-rasm).

Agar biz turistik xizmatlar koʻrsatish jarayonini sinchiklab kuzatadigan boʻlsak, unda turizm tashkilotchilari turopoperatorlar aynan xizmat koʻrsatish bilan emas, balki ular turistlarning ehtiyojlariga qarab, turistik mahsulotni shakllantiradilar va ularning turli kombinatsiyalarini tuzadilar, buning evaziga ular foiz koʻrinishida mukofot oladilar. Shunday qilib, turizm tashkilotchilari turistlar va xizmat koʻrsatuvchilar oʻrtasida vositachi vazifasini oʻtaydilar.

“Turizm tashkilotchilari nima bilan savdo qiladilar va turistik yoʻllanma yoki vaucherni harid qilgan turist bevosita nimaga ega boʻladi?” degan savol tugʻiladi. Agar ushbu jarayon diqqat bilan oʻrganilsa, unda turist ushbu yoʻllanmaning oʻrnatilgan muddatida turistik xizmatdan foydalanish huquqiga ega boʻladi.

Zamonaviy turistik bozorning o'ziga xos funksiyalari



2.2.2-rasm. Zamonaviy turistik bozorning o'ziga xos funksiyalari¹

Turistik yo'llanma vaucher - bu turistning yoki turistlar guruhining tur tarkibiga kiruvchi turistik xizmatlarga bo'lgan huquqini belgilovchi va bunday xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Turizmning iqtisodiy ahamiyati. Iqtisodiy holat sifatida turizmga ikki tomonlama qarash mumkin. Iqtisodiy kompleks sifatida. Uning rivojlanishi ko'pchilik hollarda dunyo xo'jalik aloqalari, jarayonlar, munosabatlar bilan izohlanadi.

Iqtisodiy o'sishning muhim katalizatori sifatida. Bunday holatda turizm yalpi ichki mahsulotni davlatlar o'rtasida qayta taqsimlash kanali sifatida namoyon bo'ladi. Hozirgi dunyoda turizm industrial shaklga ega: - samaradorlikning yuqori darajasi, investitsiyalarning tez qoplanishi bilan tavsiflanadi; - yangi hududlarni o'zlashtirishning boshlovchisi hisoblanadi; - tabiat va madaniy me'rosni qo'riqlashning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Xalq xo'jaligining deyarli barcha tarmoqlari va inson faoliyatining turlari bilan bog'liqdir.

2.3-§ Surxondaryoda Ziyorat turizmi rivojlanishining hozirgi holati tahlili

¹ <https://www.google.com/search>

Ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari va yo‘nalishlari bugungi kunda ko‘p mamlakatlar iqtisodiy o‘sishi va ishlab chiqarish imkoniyatlari yaratishi uchun muhim ro‘lni o‘ynaydi. Surxondaryo kabi tarixiy va madaniy bog‘liqlikga ega joylar, turistlarning qiziqishini tortish imkoniyatiga ega. Turizm infratuzilmasini tashkil etuvchi tarmoqlar faoliyatini rivojlantirish va ularning o‘zaro faoliyatlarini muvofiqlashtirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Har qanday hududda turistik va rekreatsion faoliyatni rivojlantirishning muhim omillaridan biri bu hududdagi infratuzilma majmuasining holatidir. Har bir hududning infratuzilmasi chuqur va batafsil tahlil qilishni, katta hajmdagi statistik va nazariy ma‘lumotlarni to‘plashni talab qiladi. Biz faqat turistik xizmatlarni ko‘rsatuvchi ya‘ni turistik faoliyat olib boruvchi korxonalar, mehmonxona va joylashtirish vositalari, transport, umumiy ovqatlantirish tarmoqlarni ko‘rib chiqishimiz maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda turizm sohasini jadal rivojlantirish maqsadida 60 dan ortiq me‘yoriy-huquqiy xujjatlar qabul qilinishi, soha rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillar bartaraf etilishi, 90 ta mamlakat bilan vizasiz turistlar almashish yo‘lga qo‘yilishi, 80 dan ortiq mamlakatlar fuqarolari uchun soddalashtirilgan tartibda elektron viza olish tartibi joriy etilishi natijasida 2019-yilda xorijiy turistlar soni o‘shish surati 26 foizga, vizasiz kirish tartibi joriy etilgan mamlakatlardan keladigan turistlar soni 58 foizga oshishiga olib keldi.

Surxondaryo viloyatida ham turizm sohasini jumladan ichki turizmni rivojlantirish orqali turizm xizmatlarini ko‘rsatishni yaxshilash, yalpi hududiy maxsulot tarkibida turizm xizmatlari ulushini oshirish orqali viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida samarali foydalanishga harakat qilinmoqda.

Mintaqalar turizm salohiyatini o‘rganishda ichki va xalqaro turizm ko‘rsatkichlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Jahonning yetakchi tadqiqot markazlari fikriga ko‘ra jahon aholisining yarmidan ortig‘i “o‘rta sinf” yoki “boy” qatlamga mansub bo‘lib, kundan kunga turizm xizmatlariga talab ortib orayotganligini ko‘rsatmoqda. Ekspertlarning hisobiga ko‘ra 2030-yilga borib O‘zbekistonda o‘rta sinf

aholining 70 foizini tashkil etishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda Goldman Sach tadqiqotlariga ko‘ra, yillik 35000 AQSH dollari miqdorida daromadga ega aholi ichki turizmda, 50000 AQSH dollari miqdoridagi daromadga ega bo‘lgan aholi xalqaro turistik safarlarda faol ishtirok etishadi¹.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha rossiyalik turistlarning 51 foizi, yevropada Fransiya, Germaniya, Buyuk britaniyalik turistlarning uchdan bir qismi turoperatorlar orqali o‘z sayohatlarini tashkil etishadi². Boshqa sohalarda ham onlayn savdolar pandemiya sababli ko‘proq amalga oshirilayotganligini hisobga olsak, bu tendensiya yanada pasayishini tahmin qilishimiz mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘rta sinfga kiruvchi uy xo‘jaliklari sonining ortib borishi jumladan, so‘nggi o‘n yil ichida qo‘shimcha Xitoyda 65 million kishi va Xindistonda 9 mln kishi o‘rta sinf vakillari safiga o‘tishi ichki turizm xarajatlari ortib borishini taxmin qilishga asos bo‘lmoqda. Ichki turizm xarajatlari miqdori bo‘yicha jahonda orasida AQSH va Xitoy yetakchi mamlakatlar hisoblanadi (2.3.1-jadval).

Kuchli ichki turizm ko‘pgina mamlakatlarda o‘rta sinfga mansub aholining o‘sib borishi, ichki iste‘molchilarning xarajatlari ortishi sharoitida hukumatlar tomonidan ichki mintaqalar orasida iqtisodiy aloqalarni va infratuzilmani yaxshilash orqali rag‘batlantirib borilmoqda. Masalan, Xitoyda 2013-yildan boshlab har yili o‘rtacha 8 ta yangi aeroportlar qurishdan tashqari so‘nggi 15 yilda yuqori tezlikli temir yo‘llarni rivojlantirish orqali ichki turistik sayohatlarni rag‘batlantirmoqda³

2.3.1-jadval

¹ <https://www.businessinsider.com/goldman-sachs-on-what-the-world-wants-2013-10?IR=T>

² <https://www.tourprom.ru/news/37558/> (21.11.2021)

³ <https://www.weforum.org/agenda/2018/08/these-five-charts-show-how-rapidly-china-s-aviation-industry-is-expanding/>

2019-2021-yillarda jahondagi yetakchi mamlakatlarda ichki turizm xarajatlari¹ mlrd.AQSH.dollar)

№	Mamlakatlar	Tushumlar, mlrd AQSH dollari			Jahonda egallagan o'ri		
		2019yil	2020 yil	2021yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil
1	AQSH	1026	645,6	731,5	1	1	1
2	Xitoy	836,2	328	458,7	2	2	2
3	Germaniya	323,4	170,5	212,2	3	3	3
4	Hindiston	140,1	97,1	151,1	7	5	4
5	Yaponiya	212,6	148,3	134,2	4	4	5
6	Meksika	131	68,2	130,4	8	8	6
7	B Britaniya	205,5	75,6	118,2	5	7	7
8	Italiya	163	82,1	117,9	6	6	8
9	Fransiya	31,8	66,2	102,6	10	9	9
10	Braziliya	75,7	48,8	69,4	9	10	10
	O'zbekiston	0,83	0,35	0,79

Xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, asosiy turizm markazlari xorijiy turistlar tashrifi ko'payishi ichki turizmning rivojlanganlik darajasi bevosita bog'liq, xorijiy turistlar turistik xizmatlar yaxshi yo'lga qo'yilgan joylarga intilishadi. Ichki turizmni rivojlantirish orqali xorijiy turistlarni ko'proq jalb etish imkoniyati oshishi bir qator tadqiqotlar²da o'z isbotini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yildagi Oliy Majlisga Murojaatida "Turizmni rivojlantirish bo'yicha 2021-yilda ham izchil islohotlarni davom ettiramiz. Ayniqsa, ziyorat turizmi va ichki turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi"³, deb ta'kidlashi islohotlarning yangi bosqichga chiqqanligini ko'rsatadi. Hukumatlar ichki turizmdan mahalliy qashshoqlikni bartaraf etishda, bandlikni va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda, infratuzilmani modernizatsiyalashda va

¹ <https://data.oecd.org/migration/permanent-immigrant-inflows.htm> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan

² Semenova, E. V. Problemy razvitiya vnutrennego turizma i nekotorye puti ix resheniya [Tekst] / E. V. Semenova, N. V. Maslova // Vestnik natsionalnoy akademii turizma. – 2016. – № 3. – S. 34–36.; Enhancing economic growth in emerging markets through tourism // International Finance Corporation [Electronic resource]. – Available at: http://www.ifc.org/wps/wcm/connect/industry_ext_content/ifc_external_corporate_site/trp/tourism/trp_priorities_tourism – Data obraboteniya 29.09.2016.; Antonakakis N., Dragouni M., Eeckels B., Filis G. Tourism and economic growth: Does democracy matter? [Text] // Annals of Tourism Research. – 2016. – № 39. – P. 231–267

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-sonli Qarori

narx imtiyozlari orqali turizm daromadlarini oshirishda, mintaqalar doirasida mavsumiylikni manzilli boshqarishda, turistlarni jalb etishdagi tafovutlarni tekislashda katta yordam beradi.

2016-yilda ichki turizm safarlarining 1,9 foiziga turizm xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 0,3 foizni tashkil etgan.

Surxondaryo viloyatida ichki turizmda ishtirok etuvchilar soni statistik ma'lumotlar bo'yicha o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa, viloyatdagi turistik tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilganlar ulushi aksincha, pasayib borayotganligini ko'ramiz (2.3.2-jadval).

So'nggi yillarda viloyatda xorijiy turistlar soni yildan yilga ortib bormoqda, ayniqsa 2021-yilda tashrif buyuruvchilar soni keskin darajada oshganligini ko'rishimiz mumkin (2.3.3-jadval).

Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy turistlar turistik firmalar xizmatlaridan foydalanishmagan, ular faqat joylashtirish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar xizmatlaridan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin.

Viloyatda 2010-yilda turoperatorlik va ekskursiya faoliyatini amalga oshiradigan tashkilotlar tomonidan 875 kishiga xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2021-yilda 4279 kishiga xizmat ko'rsatilgan (2.3.4-jadval).

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra turistik agentliklar, turoperatorlarning xizmatlari, bron qilish va u bilan bog'liq boshqa xizmatlar jami 2021-yilda 1 mlrd 386 ming so'mni tashkil etgan.

2.3.2-jadval

Surxondaryo viloyatida ichki turizm rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari (2010-2021 yillar)¹

Yillar	Ichki turizm safarlar soni) ming kishi	Xizmat ko'rsatilgan(joylashtirilgan)tashrif buyuruvchilar, kishi				
		Jami (ming kishi)	Turfir malar	Mexmon xona va SHO'JV	Sanatoriya -kurort muassalari	Dam olish muassasalari va bazalari
2010	51,78	875	24109	2756	24045
2011	42,32	490	29470	3051	9307
2012	55,81	170	25126	5406	25113
2013	56,01	2670	17082	7249	29010
2014	73,77	1156	32916	6822	32875
2015	90,86	1327	39780	6924	42833
2016	5521,9	103,60	2073	46188	7473	47870
2017	6356,8	113,50	2593	47923	7087	55900
2018	6631,1	82,60	3602	57491	14086	7422
2019	6451,5	106,54	3960	30570	14074	57938
2020	6642,2	19,34	2160	12568	4619	
2021	6881,6	32,538	4279	23731	4528	

Uy xo'jaliklari tomonidan mamlakat ichida amalga oshirilgan safarlar soni uy xo'jaliklari tanlama kuzatuv natijalari asosida aniqlangan. Bunda "qarindoshlar va tanishlarni ko'rgani borish" va "xaridlarni amalga oshirish" maqsadlari bo'yicha safarlar, tuman (shahar) ichida amalga oshirilgan va tashrif joyi 20 km masofadan kam bo'lgan safarlarsiz keltirilgan

2.3.3-jadval

¹ Surxondaryo viloyati hududiy Statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Surxondaryo viloyatida xalqaro turizmning asosiy ko'rsatkichlari (2010-2021 yillar)¹

Yillar	Xalqaro turizm tashriflari soni	Xizmat ko'rsatilgan (joylashtirilgan) tashrif buyuruvchilar, kishi			
		Jami	Mehmonxona va SHO'JV	Sanatoriya-kurort muassasalari	Dam olish muassasalari va bazalari
2010	6320	4964	4964
2011	7416	5093	5093
2012	9327	7792	7792
2013	8389	4199	4163	36	...
2014	9554	8701	8633	68	...
2015	7462	7408	7367	41	...
2016	8052	7968	7884	84	...
2017	9754	7585	7467	116	2
2018	32050	20174	19893	281	...
2019	119756	13297	13026	271	...
2020	9242	6822	6822
2021	190 901	91 894*	24 524	7	...

**Madaniyat va turizm vazirligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi 2022 yil ma'lumoti*

Surxondaryo viloyati tabiiy-geografik joylashuviga ko'ra Turkmaniston, Tojikiston va Afg'oniston bilan chegaradosh bo'lib, Janubiy Osiyo mamlakatlariga chiqadigan muhim transport yo'lagi o'tadigan hudud hisoblanadi². Viloyat turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari SWOT-tahlili ko'rsatishicha, hududining tranzit imkoniyatlaridan nisbiy afzallik sifatida Termiz tumani chegara hududida erkin savdo zonasini tashkil etish, osiyo mintaqasida joylashgan islom va buddaviylik dinlariga e'tiqod qiluvchi mamlakatlardan tashrif buyuruvchilarni faol jalb qilish orqali ziyorat turizmini rivojlantirish salohiyatidan unumli foydalanish zarur (2.3.5-jadval).

2.3.4-jadval

¹ Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari

² O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 2021 yil 21 avgustdagi «Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik, tahdidlar va imkoniyatlar» mavzusidagi xalqaro konferensiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan bayon etilgan g'oyalar va tashabbuslarni ilgari surish bo'yicha «Yo'l xaritasi» ni tasdiqlash to'g'risida» gi 1302-IV-son Qarori // <https://lex.uz/docs/5626329>

Surxondaryo viloyatidagi turfirmalar va tashkilotlar faoliyati¹

Yillar	Xizmat ko'rsatilganlar (ming kishi)			Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (mln so'm)		
	Surxondaryo viloyati	O'zbekiston Respublikasi	Respublika ulushi %	Surxondaryo viloyati	O'zbekiston Respublikasi	Respublika ulushi %
2010	0,8	363,3	0,2	129,4	47832,5	0,3
2015	1,3	560,4	0,2	456,2	107571,0	0,4
2016	2,1	465,4	0,5	644,2	128634,9	0,5
2017	2,6	670,0	0,4	734,7	252115,3	0,3
2018	3,6	713,1	0,5	1133,2	471695,6	0,2
2019	4,0	941,9	0,4	1675,2	560120,0	0,3
2020	2,1	696,1	0,3	2007,8
2021	4,2	1385,9

Viloyatda turizm sohasini rivojlantirishda qadimiy Buyuk ipak yo'lining Xindiston va Yaqin Sharqqa boradigan asosiy savdo yo'li chorrahasi sifatidagi tranzit imkoniyatlaridan, turli dinlar, g'arb va sharq madaniyati uyg'unlashgan o'ziga xos nomoddiy merosdan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish kechiktirib bo'lmaz vazifalardan biri xisoblanadi.

2.3.5-jadval

¹O'zbekistonda turizm. Davlat statistika qo'mitasi statistik to'plami ma'lumotlari va viloyat Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida To'rayev Z.N Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari Phd. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi Toshkent-2022-79b

Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari SWOT-tahlili¹

Kuchli jihatlari	Imkoniyatlar
<ul style="list-style-type: none"> - Janubiy va Markaziy Osiyoni bir biriga bog‘lab turuvchi qulay transport yo‘lagida joylashganligi; - noyob flora va fauna turlari mavjudligi; - Hisor, Ko‘hitang, Boysun, Bobotog‘ tog‘lari yonbag‘rlarida rekreatsiya resurslaridan foydalanish imkoniyati yuqoriligi; - ko‘plab daryo, ko‘llar, suv omborlari mavjudligi; - qadimiy sivilizatsiya o‘choqlari, ibtidoiy odamlar manzilgohlari, mamlakatimizdagi eng qadimiy ilk davlatchilik tuzilmalari paydo bo‘lganligini dalillovchi arxeologik resurslarning mavjudligi; - ellinizm, buddaviylik, islom madaniyatlariga oid turistik resurslarga boyligi; - o‘ziga xos nomoddiy me‘ros, milliy an‘analar mavjudligi. 	<ul style="list-style-type: none"> - diniy va ziyorat turizmini rivojlantirish uchun Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari turizm bozorlarini maqsadli bozor segmenti sifatida o‘zlashtirish mumkin; - suv omborlar, ko‘llar atrofida ekoturizmning tegishli turlarini rivojlantirish; - tog‘ va tog‘oldi zonalarida kichik turizm zonalarini tashkil etish; - taklif etilayotgan kichik turizm zonalarida turistik-rekreatsiya klasterlarini tashkil etish.

Kuchsiz jihatlari	Tahdidlar
<ul style="list-style-type: none"> - hududning tabiiy, tarixiy-madaniy resurslari o‘zlashtirilish darajasi pastligi; - turistik marshrutlardagi yo‘llar, yo‘ldosh infratuzilma talab darajasida shakllantirilmaganligi; - tumanlarda turizm infratuzilmasi obyektlari rivojlanmaganligi; - mahalliy va xorijiy investorlar uchun investitsiya muhiti qoniqarli emasligi; - turizm sohasi korxonalarida kasbiy malakaga ega mutaxassislar yetishmasligi. 	<ul style="list-style-type: none"> - siyosiy va iqtisodiy inqirozni boshdan kechirayotgan Afg‘oniston bilan chegaradoshligi; - rekreatsiya imkoniyati yuqori hududlardan infratuzilmaning yaxshi emasligi sababli mahalliy aholining qo‘shni viloyatlarga dam olish, sog‘lomlashtirish maqsadlarida chiqib ketishi; - xizmatlar sifatining barqaror emasligi; - qisqa muddatli dam olish maskanlarida bo‘sh o‘rinlar haqida axborotlarning yetishmasligi.

Turistik firmalar tomonidan 2020-yilda sotilgan 27 ta sayyohlik yo‘llanmalari umumiy qiymati 55,5 mln so‘m bo‘lib, ko‘rsatilgan jami xizmatlarning 2,8 foizini

¹ To‘rayev Z.N Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari Phd. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi Toshkent-2022-63b

tashkil etadi. Turistik firma va tashkilotlar tomonidan viza, chet el pasportini rasmiylashtirish, mehmonxonada joy band qilish va shunga o'xshash xizmatlar ko'rsatish hajmi 97 foizni tashkil etishi salbiy holat hisoblanadi.

Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra 2010-yilda turistik tashkilotlar tomonidan 129,4 mln so'mlik xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2020-yilda 3 ta turistik tashkilot tomonidan 2160 nafar fuqarolarga turizm xizmatlari ko'rsatilgan bo'lib, ular tomonidan 27 dona turistik yo'llanmalar 55,5 mln so'mga sotilgan, bron qilish va u bilan bog'liq bo'lgan boshqa xizmatlar bilan birgalikda 2020-yilda 2007,8 so'mlik, 2021-yilda 1385,9 ming so'mlik xizmat ko'rsatilgan.

Bu holat ushbu tashkilotlar uchun turistik yo'llanmalarni ishlab chiqish va sotish asosiy faoliyat turi sifatida qaralmasligini, asosan ko'pincha turistik yo'llanmalar viloyatdagi korxonalar va tashkilotlar madaniy tadbirlar rejasini bajarish uchun kasaba uyushmalari tashkillashtiradigan respublikamizdagi Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarga sayohatlarni amalga oshirish uchun sotilgan.

Dam olish tashkilotlari va turistik bazalar faoliyatiga e'tibor bersak, mavjud o'rinlar soni bo'yicha ular respublikamizning 7 foizini tashkil etadi va tashrif buyuruvchilar soni bo'yicha respublikadagi ulushi so'nggi yillarda 19 foizga teng.

Xo'jaipok ota ziyoratgohi yoz va kuz oylarida juda gavjum maskan bo'lib, mavsumda kuniga minglab kishi tashrif buyuradi, ularning aksariyati sharoit yo'qligi sababli tunab qolishga olishmaydi, ma'lum bir qismi esa supachalarda antisanitariya sharoitida tunab qolishadi. Bu kabi holatlarni mahalliy aholi tashrif buyuradigan aksariyat ziyoratgohlar va dam olish maskanlarida kuzatishimiz mumkin. Ushbu tashrif maskanlarida aholi asosan yaqin atrofdagi xonadonlar va sobiq ittifoq davrida turli tashkilotlarga tegishli bo'lgan bazalarga tunab qolish va kunlik joy band qilish uchun ma'lum miqdordagi to'lovlarni amalga oshirishadi. Bu holat viloyat turizm statistikasida qayd etilmaydi, uzoq yillardan buyon mahalliy aholining daromadiga aylangan bo'lsada, tegishli tartibda nazorat qilinmagan, boshqarilmaydigan ekoturizm maskanlari sifatida foydalanib kelinmoqda.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Viloyatda ziyorat turizm infratuzilmasi joylashuv hamda rivojlanishi holati, ichki va xalqaro turizm rivojlanishi muammolari va tendensiyalarini tahlil qilish va zamonaviy xizmatlarni tshakil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Surxondaryo viloyati respublikamizning janubida, markaziy hududlardan uzoqligi, geografik joylashuviga ko'ra tog'li hududlar bilan o'ralganligi, sanoatlashuv darajasi, investitsiya salohiyati pastligi, qishloq xo'jaligi asosiy daromad manbai ekanligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga salbiy ta'sir etmoqda.

Surxondaryo viloyatida ziyorat turizmning rivojlantirish imkonini beradigan turistik resurslari, ko'hna tarixiy-madaniy hamda arxeologik resurslari, jahon nomoddiy merosi mavjud.

Viloyat turizm infratuzilmasining asosiy qismi Termiz shahrida joylashgan bo'lib, tog' va tog'oldi zonalarida turizm infratuzilmasi ob'ektlarini jadal suratlarda tashkil etish orqali xizmat ko'rsatish hajmini oshirish imkonini beradi.

Termiz shahri va Termiz tumanlari hududida Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan buddaviylik, islom diniga e'tiqod qiluvchi xorijiy turistlarni jalb etadigan islom va buddaviylik yodgorliklari ziyorat turizmini rivojlantirish, yangi turizm xizmatlarini yo'lga qo'yish imkoniyatini beradi.

Viloyatdagi tog' va tog'oldi zonalari, muhofaza etiladigan hududlar va ularning chegara hududlarida dam olish, davolash-sog'lomlashtirish turizmi va boshqa rekreatsiya xizmatlari ko'rsatishga ixtisoslashgan kichik turizm zonalarini tashkil etish uchun qulay hududlar xisoblanadi.

III BOB SURXONDARYO VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI

3.1-§. Surxondaryoda ziyorat turizm resurslari va ularning joylashuvi

Viloyatdagi boy tarixga ega qadamjolar, muqaddas ziyoratgohlar hududda ziyorat turizmini joriy etib, nafaqat mahalliy balki, xorijlik sayyohlar oqimini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, hozirgacha viloyatning bu boradagi salohiyatidan samarali foydalanishga eʼtiborsizlik bilan yondashib kelinayotgan edi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 19—20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chogʻida vohaning turizm salohiyatidan samarali foydalanib, yangi ish oʻrinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga alohida eʼtibor qaratgan edi. Shunga muvofiq viloyatda 2018—2019- yillarda Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi qabul qilindi. Shunga asoslanib hududning yangilangan, zamonaviy qiyofasini yaratish, transport infratuzilmasini takomillashtirish, xorijdan tashrif buyurayotgan sayyohlarga sifatli xizmatlar koʻrsatish kabi muhim masalalarga alohida ahamiyat berilgani ziyorat turizmi imkoniyatlaridan unumli foydalanishga qulay muhit yaratdi¹. Bilamizki, Surxondaryo – Oʻzbekistonning eng janubiy mintaqasi, yarim asrdan koʻproq vaqt davomida dunyoning koʻplab arxeologlari va sayyohlarini oʻziga jalb qilib kelmoqda, Oʻzining 2700-yilligini nishonlagan koʻhna Termiz shahri qadimiy tarixiy obidalar, jumladan, Fayoztepa, Kampirtepa, Dalvarzintepa, Qoratepa va Ayritom shaharlari bilan oʻralgan. 1968- yilda qadimgi Termiz hududida Buddha haykali topilgan va oʻsha vaqtdan buyon bu yer koʻplab arxeologlar tomonidan oʻrganiladigan asosiy obʼektga aylanib, buning natijasida keyinchalik qadimgi buddaviylik ibodatxonalari majmualari kashf etildi, shu jumladan Fayoztepa (mil. av. 1-asr – milodiy 3-asr), Kampirtepa, Qoratepa. Qadimgi musiqachilarning tasviri tushirilgan mashhur Ayritom frizining kashf etilishi ushbu mintaqa bir vaqtlar buddaviylik targʻib qilinganligining dalili boʻlib xizmat qildi va ellinistik madaniyat unsurlari aniqlandi. Hozirda frizning terrakota-barelyeflari Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitajida saqlanmoqda.

¹ <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/4350>

Viloyatda turizm sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari¹ hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida quyidagi ustuvor yoʻnalishlarda amalga oshirilishi lozim:

- turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun viloyatda qulay shart-sharoitlar yaratish;

- hududdagi turizm resurslaridan samarali foydalanish, ular sonini oshirish;

- turizm infratuzilmasi va koʻmakchi infratuzilmani shakllantirish, faoliyatini yoʻlga qoʻyish;

- transport va logistika xizmatlari koʻrsatishni yaxshilash

- mahalliy brendlarni shakllantirish, turistik marshrutlar va maxsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqish;

- malakali mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish

Birinchi yoʻnalishda turizm tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha xarakteristik strategiyasi, Prezident farmonlarida koʻzda tutilgan shart-sharoitlarga qaramasdan viloyatdagi ziyorat turistik obʻektlarida turizm tadbirkorligi bilan shugʻullanuvchi subyektlar soni kam boʻlib, uni keskin koʻpaytirish talab etiladi.

Buning uchun:

- turizm tadbirkorligi bilan shugʻullanish ularning turmush farovonligini oshishiga, ish oʻrinlari koʻpayishiga olib kelishi, hudud infratuzilmasi yaxshilanishi, daromadlari oshishini tashrif manzillaridagi aholiga tushuntirish boʻyicha targʻibot ishlari olib borish;

- mahalliy aholini turizm tadbirkorligiga faol jalb qilish uchun soliq imtiyozlari, uzoq muddatli (20 yilgacha) kam foizli yoki foizsiz kreditlar berish tizimini joriy etish;

- davlat va “Turizm sohasini qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi” ning budjetdan tashqari mablagʻlarini hududdagi turizm tadbirkorligi loyihalariga yoʻnaltirish, grant

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “Oʻzbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-5611-son Farmoni. <https://www.lex.uz/ru/docs/-4143188>

mablagʻlari ajratish orqali qulay tadbirkorlik muhiti jozibadorligini oshirish talab etiladi.

Viloyatda mavjud 500 dan ortiq madaniy meros obʻektlari, ziyoratgohlarning turistik infratuzilmasini yaxshilash, Fayoztepa, Qoratepa, Zoʻrmoʻla, Dalvarzintepa, Kampirtepa (Oks Aleksandriyasi) kabi buddaviylik inshootlarini xorijiy va mahalliy sayyohlar tashrifi uchun tayyorlash, turizm infratuzilmasini yaxshilash, ushbu obʻektlar yonidagi ixtisoslashtirilgan ovqatlanish shoxobchalar, turistik qoʻngilochar muassasalarni tashkil etishning 50 foizgacha boʻlgan xarajatlarini “Turizm sohasini qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi”ning budjetdan tashqari mablagʻlari hisobidan qoplash, madaniy meros obʻektlarida topilgan arxeologik eksponatlar asosida muzeylar hamda ularning 3D formatidagi ilovalarini tashkil etish lozim.

Viloyatning togʻ va togʻ oldi hududlarda turistik infratuzilma jumladan, narxi tabaqalashtirilgan (arzon va qimmat) joylashtirish vositalari boʻlgan xostellar, oilaviy mehmon uylari, zamonaviy mehmonxonalar, dam olish, davolash-sogʻlomlashtirish maskanlari, madaniy, turli koʻngilochar va sport tadbirlari oʻtkazish imkoniyatiga ega boʻlgan inshootlar, savdo va umumiy ovqatlanish markazlarini oʻz ichiga olgan turistik majmualari barpo etilishini tezlashtirish lozim.

Hududning ixtisoslashuvini shakllantirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik mexanizmi orqali klasterlarni shakllantirish va faoliyatida ishtirok etishini, kichik va oʻrta biznes bilan qoʻshma loyihalarni amalga oshirishni, grantlar orqali qoʻllab-quvvatlashni, subsidiyalash kabilarni tavsiflaydigan intervensionistik klaster siyosati mamlakatimiz, jumladan Surxondaryo viloyati sharoitiga mos hisoblanadi.

Xorijiy tajribadan maʼlumki, klaster yondoshuvida 12 ta klasterlarga xos belgilarini: tadqiqot oʻtkazish va rivojlantirish mumkinligi, xodimlar mahorati, ishchi kuchi resurslari salohiyati yuqoriligi, turli xizmatlarning mavjudligi, yetkazib beruvchilar yaqinda ekanligi, mablagʻ hajmi kattaligi, uskunalar yetkazib beruvchilar bilan oʻzaro munosabatlar, tarkibiy tuzilmalar uyushganligi, tarmoqni tashkil etish intensiv amalga oshishi, tadbirkorlar shijoatli ekanligi, innovatsiya va oʻqitish tizimi

mavjudligi, jamoaviy rahbarlikning mavjudligini alohida qayd etish lozim¹. Ular ko'rsatkichlar orasida maxsus xodimlar alohida ahamiyatli bo'lib, hududiy klaster dasturining eng muhim hamda zaruriy elementi hisoblanadi. Kichik turizm zonalarida klasterlarni tashkil etishda davlat va xususiy sheriklik mexanizmidan samarali foydalanish lozim.

Davlat-xususiy sherikligining muhim ko'rinishlaridan biri sifatida AQSH, Kanada, Italiya, Turkiya, Qozog'iston, BAA kabi mamlakatlarda muvoffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotgan turistik-rekreatsion klasterlar (TRK) bir necha mamlakatlar hududini o'z ichiga olishi mumkinligi; klasterning samaradorligi ko'pincha sinergetik samarasida ko'rinishi; TRK ichidagi jarayonlar egiluvchanligi va o'zgaruvchanligi bilan ajralib turishi; raqobatlashuvchi korxonalar hudud salohiyati va uning raqobat ustunligini ishga solish maqsadida hamkorlik qilishdan manfaatdor ekanligida namoyon bo'ladi.

Davlat va xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish investitsiya loyihalarini jadal amalga oshirish, kerakli mablag'larni topish kabi bir qator afzalliklarni vujudga keltirishdan tashqari mahalliy aholi hamda tashrif buyuruvchilarga ko'rsatiladigan xizmatlarni soni va sifatini oshirish imkonini beradi (3.1.1-rasm).

Kichik turizm zonalarini tashkil etishda umumxo'jalik infratuzilmalarini takomillashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash va qayta o'qitish, marketing, reklama xizmatlarini tashkil etish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

